



ISBN: 978-93-90753-76-6

STRATEGIC OBJECTIVES AND PRIORITIES OF HIGHER EDUCATION SYSTEM DEVELOPMENT



Authored by

**Shoira Akbarovna Xusinova
Aktam Xatamovich Xolov
Gulnora Mardiyevna Shadiyeva
Nadira Egamberdiyevna Yuldashova**

**Published by
Novateur Publication**

466, Sadashiv Peth, M.S.India-411030

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**Shoira Akbarovna Xusinova
Aktam Xatamovich Xolov
Gulnora Mardiyevna Shadiyeva
Nadira Egamberdiyevna Yuldashova**

**OLIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING
STRATEGIK MAQSADLARI VA USTUVOR
YO‘NALISHLARI**

Monografiya

INDIA-2021

Tuzuvchilar

- Xusinova Sh.A.** - Samarqand davlat tibbiyot instituti diplomdan keyingi ta'lim fakulteti Umumiy amaliyot/oilaviy meditsina kafedrasi mudiri, t.f.n., dotsent
- Xolov A.X.** - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Boshqaruvidagi azxborot- kommunikatsiya texnologiyalari" kafedrasi mudiri, t.f.n., dotsent
- Shadiyeva G.M.** - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, i.f.d. pofessori
- Yuldashova N.E.** - Samarqand davlat tibbiyot instituti diplomdan keyingi ta'lim fakulteti Umumiy amaliyot/oilaviy meditsina kafedrasi assisteni

Taqrizchilar:

- Пардаев М.Қ.** - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, , "Iqtisodiy tahlil va statistika" kafedrasi i.f.d. pofessori
- Махмудова А.Н.** - Samarqand davlat tibbiyot instituti Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi mudiri, PhD
-

Samarqand davlat tibbiyot instituti Ichki ma'lumot ilmiy-muammo komissiyasi majlisida monografiya chülgan 2021 yil 18 jundagi-sobayonnomasi.

Samarqand davlat tibbiyot institute Ilmiy Kengashida monografiya chiqilgan va tasdiqlangan 2021 yil augsutdagi-sonli bayonnomasi

Mazkur monografiyada oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari yoritilgan. Mazkur sohada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tizimli va tanqidiy tahlil qilingan. Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"da belgilangan strategik maqsadlar va ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish mexanizmlari bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

MUNDARIJA

	KIRISH	4
I-BOB.	OLIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	9
1.1.	Oliy ta'lim tizimining rivojnitirishga doir yondashuvlar va tendensiyalar.....	17
1.2.	O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategic maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari.....	21
1.3	Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish yo'llari..	38
II -BOB.	OLIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING JORIY HOLATI	
2.1.	Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning oshirishdagi maqsadlarini amalga muammolar tahlili.....	46
2.2.	Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari yo'nalishlarini amalga oshirish mexanizmlari.....	55
2.3	Oliy ta'lim tizimining rivojnitirishga innovatsiyalarni joriy etish yo'llari.....	66
2.4	O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim sohasida amalga Oshirilayotgan innovatsiyalar va ilg'or horijiy tajribalar.....	80
	Xulosa.....	101
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati.....	106

KIRISH

Bugungi kundagi global pandemiya sharoitida O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda bir qancha to'siq va qiyinchiliklarga duch kelmokda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yoshlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida "Mamlakatimizda yuqori bilim va malakaga ega bo'lgan, raqobatbardosh kadrlar tayrlash muqsadida oliygohlar soni 127 taga etkazildi, 26 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasining filiallari ochildi. Shuningdek, keyingi 5 yilda oliy ta'limga qabul kvotasi 3 barobar oshirilib, joriy yilda 182 ming yoshlar uchun talaba boshqarilishi imkoniyati yaratildi. Bu – umumiyqamrov 28 foizga etdi, deganidir. Vaholangki, 4 yil avval bu raqam atigi 9 foizni tashkil etardi.

Davlat grantlari 21 dan 47 ming taga ko'paytirilgani, ehtiyojmand oilalarga mansub 2 ming nafar qizlarga oiliy o'quv yurtlariga kirish uchun alohida grantlar ajratilgani yoshlarimiz kelajagida ta'limlashga qaratilgan amaliy e'tiborimiz namunasidir"¹ *deb ta'kidlashlari, oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini yangi bosqichga olib chiqishga asos bo'ladi.*

"O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" da belgilangan strategik va ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish mexanizmi noaniqlik sharoitida tez-tez o'zgarib bormoqda. Jumladan so'nggi 4-5 yil ichida oliy ta'lim tizimiga 150 ga yaqin me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi va bu me'yoriy-huquqiy hujjatlar belgilangan strategik maqsadlar joylarda to'liq amalga oshirilmayapti.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida qabul qilingan davlat dasturlarida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirish borasida ham tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnik, sohaga doir

¹ Azmushijoatli yoshlarimiz bilan bo'lgan yangi O'zbekistonni albatta bunyod etamiz.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning
si//<https://president.uz/uz/lists/view/4463>

/
Yoshlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosim dagi maruza

malakali kadrlar ta'minoti, uslubiy va motivatsion taminlashda ham bir qator muammolar bor. Buni oliy talim tizimini rivojlantirishning strategic maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishdagi, ya'ni oliy ta'lim tizimini boshqarish jarayonidagi muammolar bilan isohlashimiz mumkin. Ya'ni, hududiy Oliy talim muassasalar (OTM)da oliy talim tizimini rivojlantirishning strategic maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishni rejalashtirish, tashkillashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish jarayoni raqamlashtirilmaganligi, ochiqlik va shaffoflik ta'minlanmaganligi, inson omili, korrupsiyasi mavjudligi mazkur mavzuning tahliliy va tanqidiy o'rganishni taqozo qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847- sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konseptsya"²sida O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategic va ustuvor yo'nalishlari belgilangan bo'lib, maqsadli ko'rsatkichlar asosidagi konseptsyasini 2019, 2020 va 2021 yillarda amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritalari»da belgilangan vazifalarini izhlashini ta'minlashdagi ba'zi bir OTM rahbarlari ma'suliyatsizlik va beparvolik bilan qarashi ta'lim sifati va samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan so'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarda oliy ta'limdagi korrupsiya holati, ta'lim jarayoni va sifati, ta'lim oluvchi, ish beruvchi va OTMlar o'rtasidagi samarali hamkorlikni yo'lga qo'yilmaganligiga doir qator ma'lumotlar yoritilgan. Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategic maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, Oliy ta'limni rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni keng jamoatchilikka muhokamasiga qo'yish. Masalan oliy ta'limga doir [meyoriy-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali](https://regulation.gov.uz) (<https://regulation.gov.uz>)da qo'yilgan 85 ta hujjatdan 35 tasiga bironta ham taklif alayhi tavsiyalar (isohlar) qoldirilmagan. Ba'zilarida shunchaki 1-2 ta takliflar mavjud.

²<https://lex.uz/docs/4545884>

Ikkinchidan, Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar natijasi bo'yicha parlament va jamoatchilik nazoratini samarali mexanizimini joriy etish;

Uchinchidan, OTMlar reyting tizimini takomillashtirish va OTMlar saytiga joylashtirib borish kerak. Ko'pgina OTMlar rasmiy saytlari ma'lumotlari eski yoki OTM faoliyatiga doir hamma ma'lumotlar yo'q. Masalan, OTMlardagi jamoatchilik kengashlari va ularning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqcadida 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni³**muhim ahamiyat kasb etayotir.**Bilimlarga asoslangan davlatning shakllanishi, globallashtirish jarayonining tezlashuvi hamda jahon bozorida raqobat muhitining kechinlashuvi sharoitida yangi bilimlarni egallash, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, innovatsiyalarni tezkor amaliyotga joriy etish, akkumulyatsiyalashgan yangi bilimlarni iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga aylantirish barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning hozirgi kundagi muhim vazifalaridan biri deb atashni joiz topdik. Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilib berilayotganligi buning yaqqol dalilidir. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurclari o'quv jarayoniga o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalari, jumladan macofaviy ta'lim, vebinar texnologiyalari, avtomatlashgan monitoring, elektron portfolio axborot tizimlari joriy etilmoqda⁴.

³O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr. <https://lex.uz/docs/5013007>

⁴Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. PF-5789-san 27.08.2019 yil.

⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Aliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamravli islohatlarda faal ishtirakini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chara-tadbirlar to'g'risidagi qarari. № PQ-3775. 05.06.2018 y.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Hududlarda yangi oliy ta'lim muaccacalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo'limlarning ochilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi.⁵

Bu esa ta'lim tizimi oldida ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, mustaqil qaror qabul qila oladigan va zamonaviy texnologiyalarga tez moslashishga layoqatli, yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasini qo'yyadi.

“Oldimizda turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri – **yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar** ruhida tarbiyalashdan iborat ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz”⁶ deb ta'qidladi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim samaradorligi, taraqqiyotining 16 foizi – moddiy-texnika bazaga, **20 foizi – recurslarga, 64 foizi – inson omiliga bog'liq**⁷. Bu uchala omil bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya moddiy-texnika bazasi mavjud recurclardan, imkoniyatlardan oqilona foydalanish inson manfaatiga xizmat qiladi va ratsional rivojlanishni belgilab beradi.

Evropa davlatlarining ko'plab oliy ta'lim muassasalarida oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash bo'yicha “agar biz bugun farzandlarimizni kechagiday

⁵Mirziyoev Sh.M. Tadbirkarlar va ishbilarmanlar harakati – O'zbekistan Liberal-demokratik partiyasining VIII s'ezdidagi ma'ruzasi. 21 oktyabr, 2016 yil. "Xalq so'zi", 2016 yil 22 oktyabr.

⁷ <http://data.worldbank.org/indicator>.

⁸Report to the European Commission on New modes of learning and teaching in higher education , October 2014.

o'qitadigan bo'lsak, unda biz farzandlarimizning ertasi (kelajagi)ni o'g'irlaganbo'lamiz" - degan fikrga amal qilishadi. Shunday ekan, hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim samaradorligini oshirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish kabi masalalarga oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifa sifatida qarash talab etiladi.

I-BOB.OLIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Oliy ta'lim tizimining rivojlantirishgadoir yondashuvlar va tendensiyalar

Dunyoda bo'layotgan global koronavirus pandemiyasi davrida oiliy ta'lim sohasida ham tizimli islohotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. An'anaviy ta'limdan noan'anaviy ta'lim (onlayn ta'lim)ga o'tish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu borada ta'limga biznes jarayon sifatidagi qarashi ustuvorlik qilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ta'limni "Eksport qilish" g'oyasi ko'plab xususiy OTMlarni tashkil etilishiga zamin uyg'otmoqda. Shu jumladan O'zbekistonda ham bu jarayon so'nggi 4-5 yilda yangi bosqichga chiqdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 30 iyun kuni "Yoshlar kuni" ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida "Mana, kuni kecha mamlakatimizda yana bir oliy ta'lim maskani "Yangi O'zbekiston" universiteti tashkil etildi va unga ko'p yillar Yevropadagi eng nufuzli universitetlardan birini boshqargan germaniyalik taniqli professor rektori sifatida tanlandi.

Dunyoning yetak o'quv va ilmiy tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritadigan ushbu universitetga joriy yilda 300 nafar yoshlar qabul qilinadi.

Bois yoshlarning bandligini ta'minlash davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. Bu borada quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratamiz.

Birinchidan, har o'quv yili yakuni bilan tuman, shahar, viloyat va respublika darajasida bitiruvchilar bandligini ta'minlashga oid dasturlar qabul qilish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Dasturda har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida qancha yoshlarni kasb- hunarga o'qitish, qanchasini ish bilan ta'minlash, nechta startap va tadbirkorlik loyihasini amalga oshirish belgilanishi shart. Bu bizning yoshlar bilan ishlash bo'yicha "bandlik", "innovatsiya" va "investitsiya" dasturimiz bo'lib xizmat qiladi.

Viloyat, tuman va shahar hokimlari hamda sektorlar rahbarlari har haftada bir marta yoshlar bilan uchrashib, ularning g'oya, taklif va tashabbuslarini eshitib, muammolarini hal qilishga mas'ul va javobgar bo'ladi.

Ikkinchidan, bugungi kunda oliyma'lumot talab qiladigan 80 mingga yaqin bo'sh ish o'rinlari mavjud. Misol uchun, transport, geologiya, qishloqxo'jaligi, madaniyat, sport sohalaridabilimvamalakasiyetarlibo'laturib, oliyma'lumotiyo'qligiuchunminglabyoshlarimizishgakirao olmayapti.

Shu bois joriy yilda oliy ma'lumot talab etadigan kasb va lavozimlar qayta ko'rib chiqiladi hamda ularning kamida 150 tasi bo'yicha bunday talab bekor qilinadi. Bunday yangillik tufayli 10

Mingdan ortiq yoshlar ishga joylashadi" degan konseptual fikrlar oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini tubdan yangi bosqichga ko'tardi.

Globalashuv davri, dunyoda bo'layotgan noaniqlik sharoiti va axborot jamiyatiga o'tish yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega, ijodiy faoliyat tajribasi bilan mutlaqo yangi mutaxassislarni talab qiladi, ular yangi ma'lumotlardan foydalana olish texnologiyalari, faoliyatining oqibatlarini oldindan ko'ra bilish qobiliyati, tashkiliy va boshqaruv ko'nikmalari, barcha jarayon xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish jarayoni raqamlashtirishni taqozo etadi. Bu esa O'zbekistonda ham oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini tubdan o'zgartirishni talab etadi.

⁹Azmu shijoatli yoshlarimiz bilan birgalikda yangi O'zbekistonni albatta bunyod etamiz. / O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Yoshlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // <https://president.uz/uz/lists/view/4463>

Hozirgi kunda dunyoda va mamlakatimizda oliy ta'lim tizimida katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Jumladan, "Bolonya o'qitish tizimi"ga qo'shilish tufayli O'zbekistonda oliy ta'limni isloh qilish bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirildi.

Boloniya Deklaratsiyasining asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

- ☐ uch bosqichli ta'lim tizimi-bakalavriat (akademik va amaliy), magistratura, aspirantura (bir qator universitetlarda mutaxassislik saqlanadi);
- ☐ Yevropa yagona oliy ta'lim makonini yaratish (har kim har qanday Yevropa universitetida ta'lim olishi mumkin);
- ☐ barcha Yevropa universitetlari diplomi tan olinadi;
- ☐ kredit birliklari / kreditlar yagona Yevropa tizimini yaratish (bakalavr uchun-180-240 kredit birliklari / ball);
- ☐ o'quvchilar, o'qituvchilar, tadqiqotchilarning harakatchanligini oshirish.¹⁰

Dunyodagi transformatsiya jarayonida oliy ta'lim tizimiga qo'yiladigan talablar asosida O'zbekistonda ham qator islohotlar amalga oshirildi.

Jumladan:

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 824-son qarori asosida Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida nizom tasdiqlandi. Unga ko'ra oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga Kredit to'plash va ko'chirishning Yevropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System — ECTS) asosida ta'limning kredit-modul tizimini joriy etish tartibini belgiladi.¹¹

– **Dunyo tajribasi (AQSH, Germaniya, Fransiya, Angliya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Rossiya)**ga ko'ra oliy ta'lim tizimini strategik

– rivojlantirish maqsadlarini belgilash quyidagi yondashuvlar asosida amalga oshirilmoqda:

– ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish;

– kompetentlikka asoslangan yondashuv;

– innovatsiyalarning maqsadli, strukturaviy-mazmuniy, tashkiliy-texnologik va baholash-nazorat aspektlari bo'yicha tarqalishi;

– kompetentlikka asoslangan yondashuvni mazmun jihatidan izchil amalga oshirish (shakllantiriladigan ta'lim strategiyalarimajmui, o'quvchilarning o'quv faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur va boshqalar.).

- dastur va ta'lim standartlarini zamonaviy talablar asosida ishlab chiqish;
- fan, ta'lim va ishlab chiqarish uyg'unligiga erishish.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida ta'limning roli oshib bormoqda. Jamiyatlar, davlatlar va umuman sivilizatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ta'limning rolini oshirish quyidagi asosiy omil bilan belgilanadi: ta'lim inson kapitalining rivojlanishi va ko'payishini ta'minlaydi (1-rasm).



1-rasm. Oliy ta'limning rivojlanishini ijtimoiy-madaniy tendensiyalari

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida ta'limning rolini oshirish dunyoda kechayotgan tendensiyalarni tahlil qilish va o'rganish O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'limga doir islohotlarda jahon tajribasidan samarali

foydalanish maqsadga muvofiq. Buning uchun oliy ta'limning asosiy strategik maqsadi inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Iqtisodiyotda inson kapitali deganda xodimning barcha ishlab chiqarish sifatlari, shu jumladan olingan bilim va malakalari, shuningdek tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun ma'lum vaqt davomida foydalanish mumkin bo'lgan motivatsiya va energiya (faoliyat)ning jamlanmasi tushuniladi.

Pedagogikada inson kapitalini quyidagicha izohlash mumkin:

1) turli ijtimoiy-shaxsiy va professional vazifalarni samarali hal qilish uchun mutaxassis(o'rta maktab, universitet bitiruvchisi)ning g'ayratli qobiliyati va tayyorgarligini ta'minlaydigan bilim va tajriba, qimmatli shaxsiy va professional fazilatlar majmui sifatida;

2) mutaxassisning (o'rta maktab, universitet bitiruvchisi) ijtimoiy-kasbiy kompetentligi sifatida, shakllangan malakalardan turli ijtimoiy-kasbiy vazifalarni samarali hal qilish uchun g'ayratli va mas'uliyatli tarzda foydalanish qobiliyatini ifodalovchi murakkab shaxsiy sifat.

Inson kapitalini rivojlantirishda ta'limning roli ortib borishi, o'z navbatida, quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1) inson kapitali sifatining yangi iqtisodiyot talablariga mos kelmasligi;

2) yangi iqtisodiyot sharoitida nafaqat xodimlarning kasbiy kompetentliklariga, balki ularning ma'naviy-axloqiy shaxsiy sifatlariga ham talabning ortishi;

3) cheksiz va bitmas-tuganmas inson kapitali.

Globalashuv sharoitida oliy ta'limning asosiy vazifalari:

- **madaniyat va ijtimoiy-madaniy tajribani yosh avlodga o'tkazish** va yoshlarni mustaqil hayotga va barqaror jamiyatda ishlashga tayyorlashga qaratilgan;

- **shaxsning, umuman jamiyatning rivojlanish funksiyasi** shaxsni doimiy o‘z-o‘zini tarbiyalash va kasbiy o‘sishga tayyorlash, texnologiya va yangiliklarni o‘zlashtirish va ulardan hayotda va kasbda mas’uliyatli foydalanishni ta’minlaydi.

Tadqiqotchilar asosiy ijtimoiy-madaniy yo‘nalishlarning 2 guruhini ajratadilar:

1. **Dunyodagi global jarayonlar va insoniyat muammolari, global** ijtimoiy va iqtisodiy tendensiyalar, mamlakat miqyosidagi ijtimoiy-madaniy va sanoat holati tufayli ta’limdagi talablar, maqsadlar va strategik yo‘nalishlar o‘zgarmoqda;

2. Jahon va ayrim mintaqalarda oliy ta’lim rivojlanishi, ta’lim rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari bilan belgilanadi, xalq ongi va **jamiyat rivojlanishida ta’limning roli oshib bormoqda (1-jadval)**.

1- *jadval.*

Jahonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish va uni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlari

Ijtimoiy-madaniy tendensiyalar	Kasb ta'limi va bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga qo'yiladigan talablar	Kasb-hunar ta'limi tizimini modernizatsiyalash yo'nalishlari
<u>Oliy ta'limga aloqador sohalardagi tendensiyalar</u>		
Globalashuv jarayonining o'sib borishi	Ta'lim-tarbiya jarayonini umuminsoniy qadriyatlar, jahon madaniyati an'alarini hisobga olgan holda rivojlantirish, o'quvchilar o'rtasida global tafakkurning shakllanishini, ko'p madaniyatli dunyoda yashash qobiliyatini ta'minlash	Universitet ta'lim tizimini takomillashtirish (shu jumladan o'rta ta'limni) gumanistik asosida, tinchlikparvar rivojlanishini ta'minlash aksiologik va madaniy yondashuvlar, plyuralistik, fikrlash shakllari kengligi; ta'lim mazmuniga qadriyatlar kiritish, tahlil talaba o'z-o'zini aniqlash vositasi sifatida harakat. Talabalarning ilmiy erkinliklarini ro'yobga chiqarish (o'qish shakllarini tanlash, ta'lim trayektoriyalari)
Axborotlashgan jamiyatga, bilimga asoslangan iqtisodiyotga o'tish	O'quvchilarning kompyuter savodxonligini, axborotlarni qidirish va qayta ishlash ko'nikmasini shakllantirish maqsadida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish	Ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy yetish, masofaviy ta'lim shakllarini rivojlantirish, elektron resurslar asosida o'quv-uslubiy ko'makni takomillashtirish
Ilmiy-texnika taraqqiyoti sur'atlarini jadallashtirish	Ta'lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalash; o'quvchilarning ilmiy-tadqiqot loyihalarini ishlab chiqish ko'nikmasini shakllantirish; hayot davomida ta'lim va kasb darajalarini yaxshilashga tayyorlik; kasb sohasidagi yangiliklarni tadqiq etish, o'zlashtirish va rivojlantirish	Fundamental fanlar yutuqlari bo'yicha kasbiy tayyorgarlikning mazmuni va texnologiyalarini yangilashda, ilmiy tadqiqotlar o'tkazishda, o'quv jarayonining ilmiy tadqiqotlar, ishlab chiqarish bilan aloqasini tashkil etishda qo'llab-quvvatlash. Magistratura modelini ishlab chiqish va kompetentlikka asoslangan yondashuv asosida oliy ta'lim standartlarini yangilash; kompetentlikka asoslangan ta'lim modelini universitet ta'lim jarayoniga joriy etish, bu esa talabalarni kasbiy va ijodiy mustaqil ishlarga yaqin turli xil o'quv faoliyatlariga yanada faol qo'shishga yordam beradi
Insoniyatning global muammolari keskinlashuvi	O'quv jarayonida o'quvchining o'z-o'zini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, uni global muammolarni hal etishga qaratilgan transformatsion va ijodiy faoliyatning global sub'ekti sifatida shakllantirish	Ta'lim mazmuniga global muammolarni kiritish, o'quvchilarning ularni yetarli darajada tushunishlarini shakllantirish, tegishli motivatsiya, mas'uliyat va ularni hal qilishga tayyorlik; ta'lim jarayonining shaxsga yo'naltirilgan va muammoli izlanish xususiyatini ta'minlovchi samarali ta'lim texnologiyalaridan foydalanish
Mamlakatlarning yetakchilik uchun raqobat kurashini mustahkamlash	Ilmiy-texnologik sohalarda (axborot-kommunikatsiya, nano va biotexnologiyalar) bo'yicha kadrlar tayyorlash; jahon mehnat bozorida malakali, harakatchan, raqobatbardosh bitiruvchilarni tayyorlash maqsadida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish	Oliy o'quv yurtlari (kollejlar) da ta'lim sifatini boshqarish tizimlarini yaratish, bitiruvchilarning ilmiy va innovatsion tayyorgarligini mustahkamlash
<u>Oliy ta'lim sohasidagi tendensiyalar</u>		
Oliy ta'limning ommaviy Harakterdaligi	Oliy ta'lim muassasalarini diversifikatsiyalash; uning barcha shakllari uchun sifatini ta'minlash	Sifat menejmenti tizimini yaratish, samarali ta'lim texnologiyalari, zamonaviy ilmiy-uslubiy qo'llab-quvvatlash, jumladan

	(ayniqsa, sirtqi, pullik)	telekommunikatsiya va axborot vositalaridan foydalanish orqali universitetda ta'lim sifati, samaradorligi va mavjudligini oshirish; masofaviy ta'limni rivojlantirish..
Ta'limning uzluksizligi	Ko'p sonli va uzluksizlik asosida kadrlarni uzluksiz kasb-hunarga tayyorlashni ta'minlash (maktab-kasb-hunar maktabi- universitet-kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash)	Ta'lim standartlari va dasturlari, o'quv dasturlarini takomillashtirish asosida mazmunli va texnologik uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash
Oliy ta'limni Raqamlashtirish	Talabalarining axborot madaniyatini, kompyuter savodxonligini shakllantirishga qaratilgan oliy ta'limning yangi mafkurasini asoslash; masofaviy (elektron) ta'limning resurs ko'magini rivojlantirish	Universitetda axborot-ta'lim muhitini shakllantirish, ta'lim va bilimlarni nazorat qilishning an'anaviy shakllari va usullarini takomillashtirishni ta'minlaydigan aloqa va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish, mustaqil ish hajmini oshirishga qaratilgan kompyuter vositalari asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning yangi o'quv va nazorat shakllarini yaratish, masofaviy (elektron) ta'limni joriy etish
Oliy ta'limning baynalmilallashuvi	Yagona Yevropa ta'lim makon talablarini hisobga olgan holda, universitet bitiruvchilari uchun bandlik imkoniyatlarini kengaytirish ta'minlash, professional ta'lim(dual ta'lim) harakat va raqobatbardoshligini oshirish	Universitetda ikki bosqichli bitiruvchilarni o'qitish tizimini joriy yetish; kredit-modulli o'qitish tizimini joriy yetish; sifatni boshqarish tizimlariga asoslangan ta'lim sifatini nazorat qilishni ta'minlash
Ta'limni xizmat ko'rsatish sohasiga aylantirish	Ta'lim sifatini oshirish, uning shaxs, jamiyat va davlat ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlashning mavjudligi	Oliy ta'lim muassasalarida urta ta'lim) ta'lim sifatini boshqarish tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish, mehnat sohasi, ish beruvchilar bilan aloqalarni mustahkamlash

Oliy ta'lim xizmatlari va mehnat bozorlarini samarali rivojlanishi oliy ta'lim xizmatlari sub'ektlari bo'lgan oliy o'quv yurtlari tomonidan tayyorlanadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq. Chunki bozor munosabatlari sharoitida erkin raqobatga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida innovatsiya yangiliklarini kiritish asosidagina mamlakatni jahon xo'jaligi bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash respublikamizni ilmiy salohiyatidan foydalanish darajasiga bog'liq.

Davlat tomonidan ta'lim xizmatlari tizimini bozor iqtisodiyoti talablari asosida rivojlantirish bo'yicha iqtisodchi olimlar va davlatlar tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Ammo aytish mumkinki xozirgi bozor munosabatlari sharoitida oliy ta'lim xizmatlari tizimi oliy ta'lim xizmatlari va mehnat bozorlari talablariga moliyaviy samaradorlik jihatdan uning ta'lim xizmatlari tizimini sifati jihatdan va undan foydalanish oliy ta'lim olishga intiluvchilarni talablarini qondiradigan darajada bo'lishi kerak.

Jahon oliy ta'lim tizimini keyingi 20-30 yillar ichida ularning rivojlanishini moliyalashtirishni bir necha modellari tashkil topdi. Shulardan oliy ta'lim tizimini birinchi moliyalashtirish modeli neoliberalizm modeli bo'lib, u M.Fidlin, F.Chaba va F.Xask tomonidan o'rganilgan bu modelga asosan AQSH, Yaponiya, Avstraliya, Janubiy Koreya, Yangi Zelandiya va Janubiy Afrika mamlakatlarida qo'llaniladi.¹³

Rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasi taraqqiyot bosqichiga ilm-fan, ta'lim, madaniyat va ma'naviyatga e'tibor berganligi tufayli erishilgan. Iqtisodiy yutuqlar negizida bilim, ilm-fan va texnologik innovatsiyalarga asoslanib ish ko'rishi sababli jamiyatni rivojlantirganlar. Bu omillar mamlakatni daromadi o'rtacha bo'lgan bosqichdan daromadi yuqori davlatlar darajasiga olib chiqishda, tinch va barqaror jamiyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday natijalar yukcak bilimga, ta'lim sohasidagi yutuqlarga, eng ilg'or texnologiyalar uctuvorligi va tadbirkorlik g'ayrat-shijoatiga tayanadi.

Shu boisdan ham dunyoning etakchi davlatlarining ko'pchiligida XXI asrda ta'limni yanada rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Masalan, Germaniyada «2000 yilda ta'lim», AQSHda «Amerikaliklar uchun XXI asr ta'limi», Fransiyada «Kelajak ta'limi», Yaponiyada «XXI asr uchun ta'lim modeli» kabilar qabul qilingan. O'zbekistonda esa dunyo davlatlari e'tirof etayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997), ya'ni kadrlar tayyorlashning milliy modeli qabul qilingan.

“O'sib kelayotgan avlod taqdiriga hech kim befarq bo'la olmaydi. Bunda oliy o'quv yurtlarining ahamiyati kattadir. Yoshlarni qay usulda o'qitish, ularni tarbiyalash, mustaqil mamlakatning etuk mutaxassislari bo'lishiga qayg'urish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bunda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi saviyasini jahon andozalari darajasiga etkazish, xalq xo'jaligida mutaxassisliklarga bo'lgan talab va ehtiyojlarni ilmiy tahlil asosida aniqlash, xorijiy mamlakatlar tajribacidan oqilona foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridandir¹³”.


³Rejapov X. Oliy ta'lim tizimida xorij tajribasivaulardan foydalanishimkoniyatlari. //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017 yil

¹⁴Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T.: “Sharq” nashriyot-manbaa kanserni. 1998. – 546.

1.2.1 – jadval ma'lumotlariga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, bugungi kunda ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy ucullarni joriy etish bu - milliy elektron ta'lim resurslari yaratilishini jadallashtirishda, xorijiy elektron ta'lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etishda, ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borishda, elektron o'quv adabiyotlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etish bilan birga bu ma'lumotlarni mobil qurilmalarga yuklab olish, elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratishda, kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratishda muhim rol oynaydi.

1.2.1- jadval

Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy ucullarni joriy etish




1.2.2–jadvalga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, oliy ta'limda fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarining tijorlashuvi, ya'ni "Universitet 3.0" konsepsiyasi ta'lim tizimida bosqichma-bosqich rivojlanishlarga sabab bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim tizimi o'quv rejalarini kredit-modul tizimiga o'tkazish mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich mazkur tizimga o'tkazish, individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta'lim dasturlarini shakllantirish bir tomondan oliy ta'lim muassasasi uchun engillik olib kelsa, ikkinchi tomondan ish beruvchilar uchun tayyor kadrlar masalasini ma'lum ma'noda hal qiladi deb uylaymiz.

1.2.2 - jadval

**Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish,
yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion
infratuzilmasini shakllantirish**



Shu bilan birgalikda oliy ta'limda mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv

jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uclubiy materiallarni keng joriy etilishi ham kerakli natijaga erishishimiz uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

1.2. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari

Bugungi kunda yurtimizda ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Zamonaviy, oqilona boshqaruv tizimini joriy etish – oldimizga qo‘ygan vazifalarni bajarishning asosiy shartidir”¹⁵ degan fikrlari, rahbar kadrlar boshqaruv qarorlarini qabul qilishida zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishi, ularga ta’sir etuvchi omillarni tahlil eta olishi, qabul qilayotgan qarorlarini haqiqatda amalga oshirish mumkinligini anglashi, jamiyat hayotiga naf keltirishini asoslay olishi lozimligini anglatadi. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonun, farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Shuning barobarida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ma’lum qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF–5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiya”¹⁶ simazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida “oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va

¹⁵O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhimustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // www.uzA.uz

¹⁶ <https://lex.uz/docs/4545884>

tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish"¹⁷vazifasibelgilangan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak va bu haqiqatni avvalo barcha bo‘g‘indagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur”¹⁸degan fikrlari, barcha rahbar kadrlarga samarali boshqaruv qarorlari qabul qilish mezonlarini to‘g‘ri belgilashlari, qaror natijasi inson taraqqiyoti, xalq farovonligi, yurt tinchligi yo‘lida xizmat qilish lozimligini anglatadi.

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni asosida tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish vazifasi belgilangan.

– Yuqorida keltirilgan Oliy ta’lim tizimining rivojlanishi Konsepsiyada belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishishga asoslanadi. Konsepsiyada ko‘rsatilgan oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

– mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish;

– oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning

¹⁷O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoniga 1-ILOVA // <https://lex.uz/docs/4545884>

¹⁸ Sh.M.Mirziyoev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". – T.: O'zbekiston, 2016.

intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

☐ sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash.

Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlar asosida amalga oshiriladi:

☐ ta'lim qamrovni kengaytirish;

☐ tayyorlash sifatini oshirish;

☐ ta'limni raqamlashtirish;

☐ ilmiy salohitni oshirish va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish;

☐ ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va jamoatchilik nazoratining ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish;

☐ kadrlar buyurtmachilari bilan hisoblashish hamda mutaxassisliklar tayyorlash, ya'ni mehnat bozori talablarini o'rganish;

☐ OTMLar moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

☐ OTMLar boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, "Aqlli boshqaruv" modelini joriy etish;

☐ OTMLarda korrupsiyani kamaytirish, jamoatchilik kengashlari faoliyatini jonlantirish;

☐ OTMLarni xalqaro xamkorligini kengaytirish;

☐ oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

☐ oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini Investitsiya dasturlari, hududiy va tarmoq dasturlari, vasiylik kengashlari talablari, jahon miqyosidagi texnologik o'zgarishlarni inobatga olgan holda shakllantirish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini optimallashtirish, bunda STEAM

yo‘nalishlarini (aniq fanlar, texnologiya, injiniring, ijodiy san‘at va matematika) rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish.

Yoshlarning oliy ta‘lim bilan qamrab olinishini yanada kengaytirish, oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobatni kuchaytirish, karantin sharoitida oliy ta‘lim muassasalariga abituriyentlarning hujjatlarini qabul qilish va kirish imtihonlarini talab darajasida tashkil etish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish oliy ta‘lim tizimini rivojlantirishning eng asosiy strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son hamda «2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida» 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab respublika oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish tartibi joriy etilmoqda.

Bugun shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda inson kapitaliga ehtiyoj va uni rivojlantirish asosiy maqsadlardan biri bo‘lib qolmoqda. Inson kapitali jahon darajasidagi universitetlarni o‘z ichiga olgan raqobatbardosh va moslashuvchan ta‘lim tizimiga asoslangan. Butun dunyo bo‘ylab barcha oliy ta‘lim muassasalarining xodimlari o‘z universitetlarining nufuzi uchun kurash olib boradi va ta‘lim muassasalarining global reytingida yuqori o‘rin uchun kurashadi.

OTMlar reytingi – bu ma‘lum bir bilim sohasidagi eng yaxshi oliy o‘quv yurtlari, ularning o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ta‘lim berish faoliyatining sifatini baholovchi mezondir.

Reytingning maqsadi Respublikamiz oliy ta'lim tizimida sog'lom raqobat muhitini paydo qilib, jamiyat uchun xalqaro talablarga moslashuvchan milliy kadrlarni tayyorlashda bosh mezon vazifasini bajarishdir. Amaldagi reyting tizimi oliy ta'lim muassasalarining raqamli ko'rsatkichlari bo'yicha miqdoriy ma'lumotlarga asoslangan bo'lib, reytingda ishtirok etuvchi ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatini to'liq qamrab oladi.

Oliy ta'lim tizimidagi kelgusidagi rejalar.

Yangi indikatorlar bo'yicha:

- bitiruvchilarning bandlikni ushlab turish darajasi;
- bitiruvchilar bilim va ko'nikmalari haqida ish beruvchilar bilan so'rovnoma o'tkazish;
- OTMlardagi ijtimoiy-ma'naviy muhit;
- professor-o'qituvchilar va talabalarning o'z Vatanini sevishi, uning oldidagi o'z burchlarini qay darajada anglashi.

Reyting jarayoni bo'yicha:

- ma'lumotlar bazasini shakllantirishning raqamli usuliga o'tish;
- ish beruvchilar bilan so'rovnoma o'tkazishda konsalting korxonalari bilan hamkorlik qilish.

Nazorat ishlari va so'rovnomalarni tashkil etish bo'yicha:

- ta'lim uchun yaratilgan sharoitlar, o'qitish sifati, baho qo'yishdagi xolislik kabi ko'rsatkichlarni o'rganish uchun o'tkaziladigan so'rovnomalarni onlayn tarzda yil davomida tashkil etish;
- talabalar va professor-o'qituvchilar bilan o'tkaziladigan nazorat ishlarini takomillashtirish.

Reyting ko'rsatkichlari (o'sishi yoki kamayishi) monitoringini yuritish bo'yicha:

- dissertatsiyalar himoyasi;
- ilmiy maqolalar chop etish;
- OTMlarning ilmiy salohiyati;

- ilmiy tadqiqot ishlari orqali topilgan mablag'lar;
- professor-o'qituvchilarning ilmiy ishlariga iqtibosliklari.

Xorijiy OTMlar filiallari to'g'risidagi ma'lumotlar:

- asosiy ko'rsatkichlar haqida ma'lumotlar bazasini yaratish;
- asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha monitoring yuritish va ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish.¹⁹

Ta'lim –bu jamiyatning tizimni shakllantiruvchi asosiy institutlaridan biri bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan keng funksiyalarni amalga oshiradi va amalga oshirilayotgan ijtimoiy o'zgarishlarning ta'sirida bo'ladi. Zamonaviy dunyoda ta'limning o'ziga xos xususiyati shundaki, u bir vaqtning o'zida an'anaviy shakllar va munosabatlarni saqlaydigan va ko'paytiradigan eng konservativ institutlardan biri bo'lib xizmat qiladi, ikkinchidan, u tobora eng muhim yangiliklar va ilg'orlarni qayta ishlab chiqarish markaziga aylanib bormoqda. Jamiyatning rivojlanish istiqbollarini belgilaydigan amaliyotlar ham bunga misol bo'la oladi.

Ta'lim so'nggi o'n yil ichida butun dunyoda ro'y berayotgan global iqtisodiy, siyosiy, madaniy integratsiya va birlashuv jarayoniga qo'shiladi. Buning namoyishi – bu bilimlarning umumiy birlashishi, natijada milliy ta'lim tizimlari davlat chegaralaridan chiqib, ta'limning baynalmilallashuvi va yagona jahon ta'lim makoni va ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishidir.

Ta'limning globallashuvi mamlakatdagi ta'lim tizimlarini bir-biri bilan uyg'unlashuvi, ta'lim darajasi va malaka doiralarining birlashishi, ta'limning ochiqligi va trans chegaraviy xarakteri, uni dunyoning istalgan nuqtasidan olish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Global integratsiya jarayonlari milliy ta'lim tizimlarini birlashtirishning butun mintaqalarini shakllantirishga yordam beradi.

Bolonya jarayonini amalga oshirish natijasida vujudga kelgan, bugungi kunda nafaqat Yevropada, balki uning chegaralaridan tashqarida joylashgan mamlakatlar ham qo'shilgan umumiy Yevropa ta'lim makoni bunga yorqin misoldir.

So'nggi paytlarda ta'limning globallashuvi kengayishiga yangi kuchli turtki axborot texnologiyalari va ta'limni raqamlashtirish orqali berilmoqda, bu

ta'limning milliy chegaralarini prinsipial ravishda buzadi va yagona jahon raqamli ta'lim makoninishakllantirish to'g'risida gaplashishga imkon beradi. Ta'lim bozoridagi barcha o'yinchilar uchun yangi raqobat sharoitlarini belgilaydi.

Biroq, bugungi kunda pandemiya globallashuv miqyosiga, ayniqsa, oliy ta'lim darajasiga o'zgartishlar kiritdi, bu jarayonning muhim mexanizmlaridan biri bo'lgan xalqaro akademik mobillik imkoniyatlarini chekladi va talablarning ortishi uchun milliy ta'lim tizimlarini safarbar etdi. Ilgari chet el universitetlariga yo'naltirilgan mahalliy talabalar soni kamaydi.

AQSHning 170 ta universitetida ta'lim bo'yicha mutaxassislar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 83% 2021yil kuzgi semestrda yangi xalqaro talabalar sonining 25% gacha pasayishini kutmoqda. Buning oqibatlari uzoq muddatli bo'lishi mumkin va ta'lim sohasida milliy va global kuchlarning yangi muvozanatiga olib kelishi, shuningdek, mamlakatning yetakchi ta'lim tizimlarining eksport salohiyatini o'zgartirishi mumkin.²⁰

Ta'limni ommaviylashtirish ta'limning global tendensiyasiga aylandi ijtimoiy funksiyalarning kengayishi bilan bog'liq so'nggi ellik yil keng aholi uchun unga kirishni ta'minlagan davlat, bu ta'limning elitadan ommaviy ta'limga aylanishiga olib keldi

“Barcha darajada ta'lim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta'minlash” 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasining asosiy vazifalaridan biridir.²¹

Quyidagilar oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanadi:

- mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inon kapitalini mehnat bozori talablari acocida rivojlantirish;

²⁰COVID-19 Report: an outlook for International Student Recruitment. – Режимэлектронногодоступа: <https://studyportals.com/intelligence/covid-19-report-an-outlook-for-international-student-recruitment/>

²¹O'zbekistan respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O'zbekistan Respublikasini innavatsian rivajlantirish strategiyasini tasdiqlash” to'g'risidagi farmani. 21.09.2018y.PF-5544/ "Xalq so'zi", 2018 yil 22 sentyabr.

- oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxssifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;


- sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim tizimini ijtimoiy coha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari asosiy o'ringa qo'yilgan.

Shu o'rinda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, 1.1.1- jadvalga qarang.

1.1.1- jadval

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari




Jadval ma'lumotlarining birinchi bandida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda keyingi uch yilda oliy ta'lim muassasalari soni 65 tadan 117 taga etdi, qabul o'rinlari 66 mingtadan 181 mingtaga oshdi. Ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Xorijiy mamlakatlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari doirasida 64 ta yangi kasb bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Professor-o'qituvchilarning maoshi o'rtacha 3,5 baravarga oshirildi. Buning natijasida oliy ta'lim muassasalarining ilmiy darajalari ham ortib quyidagi qo'rinishga ega bo'ldi.


1.1.2- jadval

Oliy ta'lim tizimining joriy holati



Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida sifat va raqobatbardoshlikka erishish dolzarb masala hisoblanadi. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir.

1.1.3-jadval

Oliy ta'lim bilan qamrov va ta'lim sifatini ta'minlash

Ayniqsa, oliy ta'limning byudjetdan tashqari mablag'larga qaram bo'lib qolishi, o'z-o'zini moliyalash mexanizmining yangi usullarini qo'llashga majbur bo'lishi zamonaviy oliy ta'limda ro'y berishi mumkin bo'lgan oddiy haqiqatga aylangan. Bu esa strategiyalarni aniqlashtirib olish va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlash zarurligini taqozo etadi.

Oliy ta'lim muaccacaci strategiyasi – makro va mikroiqtisodiy shart-sharoitlarni hisobga olgan uning aniq joriy davrda rivojlanish maqsad va vazifalarini aniqlab beruvchi vosita hisoblanadi. Strategiya, dastlab, xususiy sektorda keng tarqalgan bo'lib, doimo o'zgarib kelayotgan tashqi muhitga samarali javob qaytarish uchun, davlat sektorlari va notijorat tashkilotlarida qo'llanila boshlangan²²ligi buning yaqqol dalilidir.

Strategiyalar oliy ta'lim muassasasining asosiy yunalishlari hisoblangan o'qitish, ilmiy tadqiqot va talabalar masalalari bo'yicha belgilanadi. Chadvikning ta'kidlashicha, universitetlar o'zlarining ta'lim jarayonlari, o'qitish va o'rgatish,

²²Lutfullaev. Aliy ta'lim muassasasida sifatni va raqabatbardashlikni ta'minlashda strategik rejalashtirishning ahamiyati. // [http://www.erasmusplus.uz/images/shared/file/HEREs%20publication 202018202.pdf](http://www.erasmusplus.uz/images/shared/file/HEREs%20publication%202018202.pdf)

ilmiy tadqiqot kabi faoliyatlari bo'yicha sifatni oshirishga javobgarliklari oshib borarkan, akademik xodimlarning ta'lim jarayonlarini yanada kengroq tushunib borishlari lozim bo'ladi²³.

Shu tariqa strategik reja va vazifalar aniqlashtirib olingandan so'ng, strategiyani amalga oshirish bosqichida, "ishga kirishish" jarayoni boshlanadi. Erishilgan natijalar baholanadi va qayta ko'rib chiqiladi. Dunyo oliy ta'lim muassasalarining aksariyatida strategik aniq maqsad va vazifalar belgilanib, uni amalga oshirish uchun strategik rejalashtirish tajribasi etarlicha bo'lishi taqozo qilinmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, hozirgi davrda har bir oliy ta'lim muassasalari strategiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida ishlashga majbur bo'ladi. Aksariyat hollarda strategiyalarni belgilash manfaatlar va qiziqishlardan kelib chiqadi. Xususi oliy ta'lim muassasalarida strategiyalarni aniq va mukammal ishlab chiqiladi va aksariyat hollarda, strategik maqsadlar sir saqlanadi. Lekin, davlat oliy ta'lim muassasalarida strategiyalar, asosan, yuklatilgan mas'uliyat va javobgarliklardan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, har bir oliy ta'lim muassasasining o'z strategiyasini belgilab olishi va strategik maqsad sari ish olib borishi uchun rahbar kadrlarning etarlicha vakolatlari mavjud. Shunday ekan, manfaatlar va javobgarliklarni uyg'unlashtira olishda rahbar kadrlar o'z boshqaruv mahoratiga tayanadi.

Yuqoridagi fikrlardan va xorijiy tajribalardan kelib chiqib, strategik rejalashtirishni ichki strategiya va tashqi strategiyaga bo'lishni tavsiya etamiz.

Birinchisi ichki strategiya, ikkinchi esa tashqi strategiya. Ichki strategiyalar oshkora olib borilishi, barcha bo'g'in xodimlarga aniq mas'uliyatlar belgilash orqali, recurclardan oqilona va kreativ foydalanish yo'li bilan ro'yobga chiqariladi.

Ba'zi hollarda professor-o'qituvchilar orasidagi "munocabatlar muhitining buzilishi" ichki strategiya (academic antoganism), "o'zgarishlarga qarshiliklar"

²³ Chadwick, P. (1996), "Strategic management of educational development", Quality Assurance in Education, Vol. 4 No. 1, pp. 21-5

(resistence to change) kabi faktorlarni bartaraf etishda yoki zararsizlantirishda ham foydalanish mumkin, chunki ichki strategiyalarni olib borishda ijobiy va salbiy faktorlarni inobatga olmaslikning imkoni yo‘q.

Asosan turdosh oliy ta‘lim muassasalari bilan sog‘lom raqobatga kirishishda tashqi strategiyalardan foydalaniladi. Bu strategiya o‘zaro hurmat prinsiplariga asoslangan holda olib boriladi, xususi oliy ta‘lim muassasalari tashqi strategiyani ixtiyoriy ravishda sir saqlash mumkin. Ma‘lum bo‘ladiki, strategik rejalashtirishning har ikki turi ham pirovardida oliy ta‘lim muassasalarining muvaffaqiyatlarga erishishi, sifatni va raqobatbardoshlikni ta‘minlanishi uchun xizmat qiladi. Shunday bo‘lsada, xalqarolashuv jarayonining va uning komponentlari (xorijiy talabalar sonini oshirilishi, professor-o‘qituvchilar almashinuvini ko‘payishi, xalqaro ta‘lim tashkil etish orqali byudjetdan tashqari mablag‘larning oshirilishi) oliy ta‘lim muassasalarida sifat raqobatbardoshlikni ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi va ularni strategik reja asosida amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalari sirasiga kiradi²⁴.

Strategiya:

- istiqbolni tadqiq qilish, turli stsenariyalarni tahlil qilish san‘ati;
- istiqbolda raqobat kurashida afzallik beruvchi g‘oya;

korxonaning umumfaoliyati (fondi, quvvati, harajati, foydasi va hokazo)ni nazorat qiluvchi keng qamrovli tizim.

Strategik rejalashtirish hujjatlari uchta darajada ishlab chiqiladi²⁴.

1.1.4-jadval

Strategik rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqish

Respublikadarajasi	Mintaqaviydaraja	Tarmoqdarajasi
O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish	Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish	Iqtisodiyot tarmog‘ini rivojlantirish prognozi

²⁴ Lutfullaev. Aliy ta‘lim muassasasida sifatni va raqobatbardoshlikni ta‘minlashda strategik rejalashtirishning ahamiyati. // [http://www.erasmusplus.uz/images/shared/ file/HEREs%20publication 202018202.pdf](http://www.erasmusplus.uz/images/shared/file/HEREs%20publication%202018202.pdf)


²⁵ Уша жайда

prognozi	Prognozi	
O'zbekiston Respublikasini kompleks ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi	Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish	Iqtisodiyot tarmog'ini rivojlantirish konsepsiyasi
	Hudud (tuman, shahar)ni kompleks rivojlantirish dasturlari	Iqtisodiyot tarmog'ini rivojlantirish dasturlari

O'rta muddatli strategik hujjatlar (3 yildan 5 yilgacha) uzoq muddatlilariga (5 yil va undan ortiq), qisqa muddatlilari (1 yildan 2 yil-gacha) o'rta muddatlilariga muvofiq kelishi lozim.

Maqsadi va vazifalarini tanlash strategik rejalashtirish jarayonining eng dastlabki va mas'uliyatli bosqichlaridan hisoblanadi.

Bu jarayon rejalashtirishning keyingi barcha bosqichlari uchun mo'ljal vazifasini o'taydi. Korxona mablag' faoliyatining bosh maqsadi — kam mablag' sarflab, iste'molchilarga yuqori sifatli mahsulot etkazib berish, topshiriq, shartnomalarini bajarish. Strategik rejalashtirish sifati ham ana shu bosh maqsadning qanchalik to'g'ri tanlanganligi va qabul qilinganligiga bog'liq. Shu sohadagi tadqiqotlar maqsadning quyidagi mezonlarga mos kelishi lozimligini



ko'rsatadi:

1.1.1. Rasm.Strategik rejalashtirish sifati mezonlari

Strategik rejalashtirishning birinchi mezoni maqsadning aniq me'yoriy o'lchovga ega bo'lishini talab qiladi. Masalan, "shu davr ichida xodimlarning xizmat pillapoyalari orasidagi o'sishini taxminan 10-

15 foizga oshirish", "sifati a'lo, ammo bahosi shuncha foiz past bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarish" va hokazo. Bunday maqsadlarni aniq qo'yish bilan rahbar barcha bo'g'inlarning istiqboldagi rivojlanishi bo'yicha aniq miqdoriy mo'ljallarni belgilaydi.

Strategik rejalashtirishning ikkinchi mezon —


bu prognoz qilinayotgan vaqt (davr)ni aniq belgilash lozimligi. Bu mezonga binoan, strategik rejalashtirish uzoq muddatli (besh yildan ko'proq muddatga), o'rta muddatli (bir yildan besh yilgacha) va qisqa muddatli (bir yilgacha) bo'lishi mumkin.

Strategik rejalashtirishning maqsadga erishish - uchinchi mezoni ikki jihat nuqtai nazaridan muhimdir. Birinchidan, mo'ljallangan maqsadning amalga oshmasligi korxonaga katta zarar etkazishi, hattoki bankrotlikka olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, amalga oshirish mumkin bo'lmagan maqsadning korxona oldiga qo'yilishi band bo'lgan xodimlarning muvaffaqiyatga intilishini bo'g'ib qo'yadi. Bu esa o'z navbatida ularning shaxsiy manfaatdorligini so'ndiradi. Ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Strategik rejalashtirishdagi maqsadning to'rtinchi mezoni — bu maqsadning muvofiqlashtirilishini hisobga olishi. Bunday talab to'la- to'kis boshqaruvchilarning mahorati va malakasiga bog'liq. Bu erda gap qo'yilgan maqsadning boshqa maqsadlarning amalga oshishiga xalaqit bermasligi to'g'risida ketyapti. Bosh maqsad va qo'shimcha maqsadlarning bir- biriga muvofiq kelmasligi turli bo'g'inlar ishida turli qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Maqsadga erishishning beshinchi mezoni — bu strategik rejalashtirilayotgan ob'ekt bilan bog'liq bo'lib, uning ustuvorligiga e'tibor beriladi. Masalan, foydalilik, bozor segmentlari, moliyaviy resurslar, innovatsi

ya, sotsial himoya va boshqalar. Bu sohalar bo'yicha maqsadlar ham mazmunan, ham ifodalanish shakli nuqtai nazaridan bir- biridan tubdan farq qiladi. Darhaqiqat, agar so'z foydani uzoq muddatga rejalashtirish haqida ketsa, u holda asosiy maqsad foyda, daromad ko'lam, kapital qo'yilmalarga ajratiladigan mablag' va hokazolar nazarda tutiladi.



1.1.2. Rasm. O'sishstrategiyasi

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda strategiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha strategiyani ishlab chiqishda o'sish strategiyasidan foydalaniladi. U jadval ko'rinishida quyida o'z ifodasini topgan. O'sish strategiyasi uch xil turga bo'linadi. Intensiv o'sish strategiyasi, bunda ta'lim muassasalarida bozorga chuqurroq kirib borish, unda foydalanilmay qolgan imkoniyatlardan foydalanish hisobiga o'sish nazarda tutiladi. Integratsion o'sish strategiyasi, bunda tarmoqning boshqa sub'ektlari bilan hamkorlik (vertikal va gorizontal integratsiya) aloqalari amalga oshiriladi. Diversifikatsiya strategiyasi, ta'lim muassasalarida xizmatlar turlarini kengaytirish orqali o'sishga erishish, tubdan boshqa xizmat turlarini ko'rsatish, pullik ta'lim xizmatlari va hokazolar.

1.1.5- jadval

Oliy ta'lim muassasasining o'sish strategiyasi imkoniyatlari

Strategiya-lar	1.Kirib borish strategiyasi-xizmatlar hajmini o'sishi	2.Integratsiya strategiyaci - strategik alyanslar yaratish	3.Diversifikatsiya strategiyasi - xizmatlar nomenklaturasinikengaytirish
1	Ta'lim xizmatlari bozoriga chuqurroq kirib borish	Kacb-hunar kollejlari va akademik litseylar bilan to'g'ridan to'g'ri hamkorlik asosida regressive integratsiya	Konsentrik diversifikatsiya (OO'Yularida turli faoliyat sohalari uchun mutaxassislar tayyorlash)
2	Ta'lim xizmatlari bozorini kengaytirish	Progressiv integratsiya	Gorizontali diversifikatsiya (korxonalar buyurtmaci asosida kadrlar tayyorlash)
3	Yangi shakllar bilan dasturni takomillashtirish	Gorizontali integratsiya (boshqa OO'Yu bilan hamkorlik)	Konglomerat diversifikatsiya(tubdan boshqa xizmat turlarini ko'rsatish, pullik ta'lim xizmatlari)

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oliy ta'limni rivojlantirishning strategik maqsadlari oliy ta'lim strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish ta'limxizmatlari sifatini oshirishga olib keladi.

1.3 Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish yo'llari

Bugungi kunda oliy ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020 yil 23 sentyabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi, unda belgilangan masofaviy ta'lim haqidagi qoidalar o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Shuningdek, Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sisshilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo'ldi²⁵.

Qonunda individual ta'limga oid qoidalar belgilanib, u ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, qonunga inklyuziv ta'lim to'g'risidagi qoidalar kiritilib, unga binoan, inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda, barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.


Hududlarda yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va

²⁶O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020 yil 23 sentabr. O'RQ-637 san.
<https://lex.uz/docs/5013007>

kechki bo‘limlarning ochilishi, oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo‘nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi.

2.1.1-jadval

Oliy ta’lim bilan qamrov va ta’lim sifatini ta’minlash



Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta’minlashga to‘siq bo‘layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda, xususan:

- birinchidan, oliy ta’lim tizimida o‘qitishni tashkil etish jarayoni, ta’lim olayotgan talabalar bilimini baholash tizimi bugungi kun talablariga javob bermayapti;

- ikkinchidan, professor-o‘qituvchilarning faoliyatini, bilimini va pedagogik ko‘nikmasini baholashning zamonaviy tizimi mavjud emasligi ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

- uchinchidan, oliy ta’lim muassasalariga kirish test savollari abituriyentning mantiqiy fikrlash qobiliyatini aniqlash imkonini bermayotganligi iqtidorli yoshlarni oliy ta’lim muassasalariga qabul qilishda muammolar keltirib chiqarmoqda;

- to'rtinchidan, oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining o'rnatilmaganligi ushbu sohada ko'plab muammolarning, eng avvalo, korrupsiya holatlarining saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda;

- beshinchidan, oliy ta'lim muassasalarining mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli va tizimli o'zgarishlardagi ishtiroki hamda tashabbuskorligi sezilmayapti, ularning ushbu yo'nalishdagi faoliyati hanuzgacha qoniqarsiz bo'lib qolmoqda;

- oltinchidan, respublikamizda olib borilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali xalqimizga, keng jamoatchilikka tushuntirishda oliy ta'lim muassasalarining faol ishtiroki yo'lga qo'yilmagan;

- ettiinchidan, oliy ta'lim muassasalari innovatsion va texnologik g'oyalar bilan fikr almashadigan muloqot markazlariga aylanmagan, tegishli sohalarda mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli o'rganish, tahlil qilish va ularning echimi bo'yicha taklif kiritish borasida professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning tashabbus ko'ratishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmagan.

Mavzuni tahlil qilishda xorij va O'zbekistonlik olimlar tadqiqot ishlari o'rganildi va tahlil qilindi. Jumladan, Evan Mensi, Pamela Lemoen, Kristofor Garretson, Mixayl Richardsonlar xususiy oliy ta'lim muassasalari bilan davlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirishni qiyosiy tahlil qilishgan²⁷. Lothar Zechlin oliy ta'lim tizimida strategik rejalashtiring mazmun-mohiyati va uning yo'nalishlarini tahlil qilgan. Oliy ta'limning strategik maqsadlari va usulvor yo'nalishlari davlatning ta'lim siyosati bilan belgilanishini va mamlakat taraqqiyotining asosiy drayveri sifatida talqin etiladi.

²⁷Mense, Evan & Lemoine, Pamela & Garretson, Christopher & Richardson, Michael. (2018). The Development of Global Higher Education in a World of Transformation. Journal of Education and Development. 2. 47. 10.20849/jed.v2i3.529.

²⁸Zechlin, Lothar. (2010). Strategic Planning in Higher Education. 10.1016/B978-0-08-044894-7.00885-X.

²⁹ Lange Clenn-Marie, Quentin Wodon and Kevin Carey eds/ 2018/ The changing Wealth of nations 2018. Building a sustainable Future Washington, DC World Bank. Doc. 10.1596/978-1-4648-1046-6 P8.

³⁰Fisbein, Ariel va Dena Ringold "Benchmarking the Governance of Tertiary Education Systems." Washington DC: The World Bank 2019; Weber, Luc, J.Dudestatdt "University Research for Innovation." London: Economica 2010

Oliy ta'limni rivojlantirishning fundamental va amaliy jihatlarini to'g'risida va oliy ta'lim muassasalari sifatini oshirish hamda raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha uzoq xorij olimlaridan V.M.Rutgayzer, Fisbeyn, Ariel va Dena Ringold, Veber, Lyuk, Dj. Dudeshtet²⁹. Boaden R.Dj., Deyl B.Gning "Improving higher education: Total quality care, Buckingham" (2012) "Oliy talim tizimi kadrlari sifatini oshirish to'g'risida qarashlari buguni kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q", "Team work in Services: Quality circles by another name?" (International Journal of Service Industry Management, Vol.17 No.3, pp. 126-136), Jane Knayt "Ta'lim habllari: Modami, Brendmi, Innovatsiyami?", yaqin xorij olimlaridan V.A. Noskov, G.P.Sergeyev, D.I.Pravdin, Ye.I.Kapustin, I.S.Sharshov, L.S.Chijov, R.I.Kapelyushnikovlar o'z ilmiy asarlarida tadqiq etishgan³⁰. O'zbekistonda mustaqillik yillarida ta'lim tizimining holati va uning rivojlanishining ayrim jihatlarini G.Axunova, X.G.Alimdjanov, A.Vaxabov, E.Imamov, Sh.Qurbonov, G.A.Qosimov, D.X.Nabiyev, R.M. Usmonova, Sh.Sh.Zaxidova, A.O.Eraliyev, A.X Eshbayevlarning ilmiy ishlarida tahlil qilingan³¹. Shuningdek, mavzuga doir O'zbekistondagi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Jumladan, 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan 75 moddadan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 27 oktabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarini nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi , №PF-5847 son

³¹Kapustin E.I. Sfera obslujvaniya pri sotsializme-E.I.Kapustin M.: «Мысль», 1968.-203s.; Kapelyushnikov R.I. Rossiyskiy rynok truda: adaptatsiya bez restrukturizatsii - M.: GUVShE, 2015.-S.78-82.; Rutgayzer V.M. Resursy razvitiya neproizvodstvennoy sfery - V.M.Rutgayzer - M., «Мысль», 2015-229s.; Pravdin D.I. Razvitie neproizvodstvennoy sfery pri "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 2, aprel, 2019 yil 8 sotsializme-M., «Ekonomika», 2016-158s.; Noskov V.A. Visshaya shkola v sisteme obshchestvennogo vosproizvodstva. Avtoreferat. Dis. na soisuch. step.d.e.n. Kostroma -2013. 38s.

Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son hamda «Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019 yil 16 yanvardagi PQ-4119-son qarorlari shular jumlasidandir. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma’ruza va nutqlarida oliy ta’lim tizimining rivojlantirishga doir konseptual nutqlari tadqiqotning metodologik asosini tashkil etdi .

Oliy ta’lim sohasidagi innovatsion jarayonlarning kechishiga oid turli xil muammolarni ilmiy jihatdan tadqiq qilishga Yaponiyani oliy ta’lim tizimini boshqarish muammolarini N.P.Dronishines, oliy o‘quv yurtlarini ilmiy yo‘nalishdagi hamkorligi masalalarini N.L. Zaysev , oliy ta’lim tizimida mutaxassis kadrlarni tayyorlash sifati va bu jarayonni boshqarish M.I.Irodov, ilmiy boshqarishni AQSH tajribasini o‘rgangan M.M.Ivanov , inson resurslarini boshqarish bo‘yicha I.K. Makarova , oliy ta’lim tizimida boshqaruv qarorlarini qabul qilishninr Rossiya tajribasini o‘rgangan A.Panova va boshqalar o‘z hissalarini qo‘shganlar.

Ta'lim berishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan samaradorligini baholash muammosining ayrim nazariy jihatlarini o'rganib chiqishga Q.X.Abdurahmonov, so'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlar A.N.Aripov⁴⁰, inson resurslarini boshqarish, kadrlarni tayyorlash, oliy ta'lim tizimida axborot kommunikatsiyatexnologiyalaridan foydalanish masalalariga, personalboshqarishda xorijiy mamlakatlar tajribasi D.N. Raximova, zamonaviy sharoitda oliy ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish masalalariga B.Yu.Xodiev kabi O'zbekistonlik etuk olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida, asarlarida, maqolalarida o'rganilgan va yoritilgan.

Globallashuv oliy ta'limni o'zgarish, beqarorlik va noaniqlik dunyosiga aylantirdi (Douglass, King & Feller, 2019). Globallashuv, 21-asrda bir asosiy haqiqat, oliy ta'lim tanqidiy global jamiyatda (Zhu, 2015) chuqur, o'zgaruvchan talablariga har bir muassasa roli va missiyasini tekshiradi. Globallashuv tobora integratsiyalashgan jahon iqtisodiyoti, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xalqaro bilimlar tarmog'ining paydo bo'lishi va oliy ta'lim muassasalari (Altbach, 2016; Mishra, 2018) nazoratidan tashqari boshqa kuchlar tomonidan shakllantirilgan haqiqat sifatida tavsiflanadi. Texnologik o'zgarishlar shunday tezlashuvchan sur'atlarda yuzaga keladiki, bilim ishlab chiqarish boshqaruvni majburiy, lekin ko'pincha nomuvofiq qiladi (Lemoine, Hackett & Richardson, 2016a). Futurologlar ertaga ta'lim tizimlari bugungi (Kaiser, Maassen, Meek, van Vught, de Weert & Goedegebuure, 2018) kundan keskin farq bo'ladi, deb taxmin qiladi. Ta'lim texnologiyalari va telekommunikatsiyalar (Bernard, Boroxovski, Schmid, Tamim & Abrami, 2018) tufayli ta'lim va ta'limga oid yangi

⁴⁰Raximova D.N., Aripov A.N. va boshqalar. Zamonaviy menejment: nazariya va amaliyot- T.: G'afur G'ulam ijadiy uyi, 2011. – 56,7 b.t

⁴¹Рахимова Д.Н., Касимова Н. Принципы управления персоналом в Японии. Потенциал современной науки. 2016. №4(21). С.111-117

⁴²Ходиев Б.Ю. Совершенствование системы управления вузами в современных условиях // Иктисодиёт ва таълим. - 2003. -1. - С. 14-20

yondashuvlar ko'payishini va undan samarali foydalanilishini prognoz qilmoqdalar. Biroq, ba'zi imkoniyatlar va dasturlarni kengaytirish, shuningdek, sifat (Sobe, 2015) savollariga javob berish uchun baholash va baholash tizimlarini o'z ichiga olishi kerak, deb ogohlantiradi. Oliy ta'limda sifat tushunchalari mamlakatlar va mintaqalar o'rtasida farq qiladi va mintaqaviy sifat dasturlari bu farqlarni aks ettiradi (de Wit & Hunter, 2017). Lekin sifati hislar o'zgarmoqda, va yakunlari va standartlarga ortib borayotgan ye'tibor global kontekstida texnologiya vata'lim baholash va baholash uchun ko'proq dramatik texnik ehtimoli mavjud (Krokhmal & Simutina, 2018; Lemoine, Jenkins & Richardson, 2017). An'anaviy universitetlar tarixan inson kapitali shaklida bilim ishlab chiqaruvchilar bo'lgan, tadqiqot, va stipendiya va endi umrbod o'rganish tizimiga utish lozimligini ta'kidlashadi (Kemp, 2016). Oliy ta'lim uchun ehtiyoj va orzu ortib bormoqda, lekin uning hozirgi shaklida oliy ta'lim barqarorlik ta'minlash omili hisoblanadi (Avdeeva, Kulik, Kosareva, Zhilkina & Belogurov, 2017) chunki oliy ta'lim sezilarli ijtimoiy tenglik hissa qo'shadi va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga kumaklashadi (Hudson, 2016; Maleye-Bassett, 2015).

Tarixan, ta'lim asosiy inson ehtiyoj sifatida qaraldi, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish muhim omil sifatida talqin etiladi. Ta'limga investitsiyalar jismoniy shaxslarning farovonligini oshirish uchun qabul qilindi ularning "inson kapitali" va iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish xizmat qiladi.

Ta'lim tengsizlikni kamaytirish vositasi va ijtimoiy rivojlanish joyi sifatida ham ko'rib chiqildi. Mamlakatlarning texnologik va ta'limni tezkor ravishda takomillashtirishni qabul qilish, tarqatish va maksimal darajaga ko'tarish imkoniyatlari yetarli ta'lim tizimlariga bog'liq yedi. Xalqaro darajadagi ta'limni marketing va sotish global bilimlar iqtisodiyotiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatdi, chunki manfaatdor tomonlar talabalar tobora o'rganayaptimi yoki muassasalar o'zlarining narxlarini oqlaydigan xizmat ko'rsatadimi yoki yo'qligini so'rashmoqda.

Dunyo bo'ylab hukumatlar davlat oliy ta'limini qo'llab-quvvatlashni barqaror ravishda minimallashtirishdi va so'nggi o'n yil ichida ilmiy daraja olish bilan bog'liq xarajatlar doimiy ravishda oshib bordi. Ko'pgina universitetlar ko'plab talabalardan foyda olish uchun ta'limni tovarlashtirishning qayta qurish modelini qabul qilishga majbur. Oliy ma'lumot olish yo'lida qiyinchiliklar, xatarlar va noaniqliklar mavjud bo'lib, ular ta'limni oddiy tovar sifatida baholashdan boshlanadi: ta'lim jamoat foydasiga aylanadi. Oliy ta'lim tobora iqtisodiy rivojlanishning asosiy vositasi sifatida qaralmoqda.

Hukumat budjeti cheklanganligiga qaramay, universitetlarni javobgarlikka tortish uchun ko'plab davlatlar maqsadli dasturlar uchun universitet tadqiqotlarini moliyalashtirish strategiyasini qabul qildilar. Ko'pgina mamlakatlarning fuqarolari va siyosatchilari, oliy ma'lumotga sarflanadigan soliq tushumlari uchun jamiyat qanday aniq foyda ko'rayotganini tez-tez so'rashmoqda. Ushbu iqtisodiy va global o'zgarishlarning barchasida oliy ma'lumot ishtirok yetadi. Oliy ma'lumot global bozorlashuv ostida bo'lgan xalqaro muhitni shakllantirishning asosiy elementidir⁴³.

Binobarin, oliy ma'lumot sotib olish va sotish uchun tovarmi yoki bu iqtisodiy globallashuvni yaratishda xizmatmi? Nima bo'lishidan qat'iy nazar, oliy ma'lumot global bozorda bilimlarni yaratish, almashish va amalga oshirish uchun juda muhimdir, hisobot berish kabi ko'plab kutilmagan oqibatlariga olib keladi.

Globalizatsiya oliy o'quv yurtlarida muhitni yaratadi, bu yerda bilimlar va ma'lumotlar integratsiyani oshirish qobiliyati uchun yuqori baholanadi. Shunday qilib, globallashuv ta'siri ostida oliy ta'limdagi o'zgarishlar aksariyat universitetlar uchun oliy ta'lim xizmatlari bozorida muvaffaqiyat qozonish uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda.

⁴³https://www.researchgate.net/publication/329967874_The_Development_of_Global_Higher_Education_in_a_World_of_Transformation

II-BOB. O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING JORIY HOLATI

2.1. Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlarini amalga oshirishdagi muammolar tahlili

Oliy ta’lim tizimin rivojlantirishda yangi xususiy OTMlar tashkil qilish bilan birga, mavjud OTMlar faoliyati samaradorligini oshirish ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda ilmiy salohitini oshirish juda muhim. Oliy ta’lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo‘limlarning ochilishi, oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo‘nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi. Shuningdek, yangi oliy o‘quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish maqsadli ko‘rsatkichlari

Aholimizning oliy ta’lim tizimi bo‘yicha fikrlari o‘rganildi. Natijada bugun davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, sirtqi va kechki ta’lim shakllarini qayta tiklandi, qabul kvotalari ham yildan yilga sonini oshirilmoqda. Maktab bitiruvchilarini oliy ta’limga qamrab olishdarajasi 2016 yilgi 9 foizdan 2020 yilda 25 foizga oshirildi. 2021 yil 28 foizga oshirilishi ko‘zda tutilmoqda (3-rasm).



3-rasm. Qabul bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar

Oliy ta'lim qamrovini oshirish borasidagi son nuqtai nazardan ko'rsatkichlar yaxshi tomonga o'zgarib bormoqda. Lekin ta'lim sifati, professor-o'qituvchilarning oliy ta'limni raqamli transformatsiyasi jarayonidagi ishtiroki yetarli darajada emas. Ko'pgina viloyatlarda tashkil etilgan OTMlarda interaktiv usullarda o'tiladigan auditoriyalar samarali foydalanish tizimi yo'lga quyilmagan. Koronavirus pandemiyasi davrida tashkil etilgan onlayn darslar formal tarzda tashkil etilgan bo'lib, talabalarni o'zlashtirish natijalari qaytma aloqa orqali baholanmagan yoki rasmiyatchilik asosida vedmostlar shakllantirilgan.

Noan'anaviy tashkil etilgan darslarga professor-o'qituvchilar tayyor emasligi, ZOOM platformasidan foydalanish talablarini bilmasligi, ko'pincha darslarni kech boshlanishiga sabab bo'lmoqda. Chekka hududlarda internet tezligi pastligi dars sifatiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Professor-o'qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018 yilga nisbatan o'rtacha 2,5 barobar oshirildi. Bu yildan boshlab 10 ta oliy ta'lim muassasasi o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi.

Kredit tizimiga o'tish. Kredit tizimiga o'tish bo'yicha ham ko'p masalalar ko'tarilmoqda, ularni yechishda quyidagi yondashuv taklif etiladi (4-rasm).



4-rasm. Kredit tizimiga o'tish Qabul bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar

Bunda oldingi o'quv rejalarini mexanik tarzda kredit tizimiga aylantirish kutilgan natijani bermaydi. Fanlarni keskin qisqartirish lozim va ular bir semestrda 4 tadan oshmasligi kerak. Bundan tashqari, mutaxassislik fanlarini ko'paytirib, chuqurroq o'tishga moslash zarur.

Talabalarga fanlarni tanlash imkoniyatini berish ham to'g'ri yondashuv. Qaysi fanlarni o'qish va qanday yo'nalishni tanlashni o'zi hal qilsin. Shuningdek, fanlar qaysidir professorga moslab emas, talabalar xohishi

asosida o'qitilish maqsadga muvofiq (5-rasm).



5-rasm. Oliy ta'limni raqamlashtirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar

Bugungi kunda barcha OTMlarda ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarga ham olib e'tibor qaratilmoqda (6-rasm).



6-rasm. OTMlar ilmiy salohiyatini oshirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar

Kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida puxta o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali

integratsiyaning yo‘qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kirishi aniqlandi.

Talabalar tomonidan keltirilgan muammolar:

- ishlab chiqarish amaliyoti bilan oliy ta’lim muassasalari hamkorlik jarayonining sust ekanligi;
- ARM faoliyatining qoniqarli darajasi;
- mavjud adabiyotlarning eskiligi va yetishmasligi;
- laboratoriya faoliyatining yaxshi tashkil qilinmaganligi (jihozlarning talabga javob bermasligi);
- fanlarning juda ko‘p ekanligi;
- magistratura qabuliningshaffof emasligi;

1. O‘qituvchilar tomonidan keltirilgan muammolar:

- kadrlarning malaka oshirish tizimining hali ham eskicha ko‘rinishda ekanligi;
- byurokratiyaning kuchli ekanligi;
- ilmiy ishlarni tashkil etishda muammolarga duch kelinayotganligi;
- o‘quv rejani tuzishda ma’lum bir qolipga tushib qolganlik, erkinlikning yo‘qligi;

Rektorlar tomonidan keltirilgan muammolar:

- o‘qituvchilar tomonidan ta’magirlikka yo‘l qo‘yilayotganligi;
- xodimlarning ishga olish tartibining eskicha ko‘rinishda qolganligi;
- oliy ta’lim vazirligi tomonidan berilayotgan topshiriqlarning haddan ziyod ko‘p ekanligi(bir yilda 2600 ta xat chiqarilishi);
- o‘qituvchilar tomonidan chiqarilgan darsliklar sonining kamligi;
- o‘qituvchilar tomonidan chiqarilgan o‘quv qo‘llanmalar sonining kamligi;
- xorijiy o‘qituvchilar sonining yetishmasligi;
- ilmiy yoki ta’lim loyihalarida (xorijiy, qo‘shma) ishtirok etgan professor-o‘qituvchilar sonining kamligi;
- ilmiy yoki o‘quv loyihalarida (xorijiy, qo‘shma) ishtirok etgan talabalar soni;

- xalqaro konferensiyalar yoki seminarlarda ishtirok etgan professor-o'qituvchilar soni;
- xalqaro konferensiyalar yoki seminarlarda ishtirok etgan talabalar soni;
- sohalar buyurtmalari asosida o'tkazilgan tadqiqotlardan olingan mablag'lar (so'm) ;
- litsenziya kelishuvidan tushgan mablag'lar (so'm);
- intellektual mulk uchun oligan himoya hujjatlari(patentlar) soni;
- amaliyotga qo'llanilgan ilmiy ishlanmalar miqdori;
- intellektual mulk natijalari asosida tuzilgan litsenziya shartnomalari soni;
- xalqaro nufuzli tanlovlarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan va mukofot(diplom)larga sazovor bo'lgan hamda O'zbekiston qahramoni Davlat unvoniga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar sonining kamligi bo'yicha;

Yuqorida keltirilgan muammolar ta'lim sifatining samarali bo'lishida bir qancha to'siqlarni keltiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijasida mamlakatimizdagi barcha milliy oliy dargohlarning reytingi tuzildi.

Muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifalari sifatida uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish, kadrlar tayyorlash sifati va o'quv jarayoni samaradorligining xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish belgilangan⁴⁴. Davlat inspeksiyasi o'z faoliyatini boshlagan shu qisqa vaqt ichida oliy ta'lim muassasalari faoliyati bevosita joylarga chiqib o'rganildi, tizimga ta'lim sifatini baholash indikatorlarini joriy qilish bo'yicha loyiha tayyorlandi, xorijiy milliy va xalqaro reyting agentliklari tajribalari asosida Respublika oliy ta'lim muassasalarining milliy reyting tizimi ishlab chiqildi (2-jadval).

Respublika oliy ta'lim muassasalarining milliy reytingi

2019 yil holatiga⁴⁵

2-jadval

№	Oliy ta'lim muassasasining nomi	Jami ballga nisbatan foizhisobi da	IF*(40 %)	O'S*(30 %)	TB*(30 %)
1	O'zbekiston milliy universiteti	69.02	31.38	16.54	21.1
2	Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislar instituti	68.96	24.12	18.5	26.34
3	Samarqand davlat universiteti	52.89	19.07	8.65	25.18
4	Toshkent axborot texnologiyalar universiteti	52.68	16.31	11.64	24.74
5	Toshkent temir yo'l transporti muhandislar instituti	51.63	12.01	15.04	24.58
6	Toshkent davlat agrar universiteti	51.58	15.85	11.74	23.98
7	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	51.57	17.93	11.24	22.41
8	Toshkent davlat stomatologiya instituti	50.6	17.07	13.03	20.49
9	Toshkent moliya instituti	50.43	14.22	14.8	21.41
10	Toshkent davlat sharqshunoslik instituti	49.11	13.57	16.23	19.3
11	Toshkent tibbiyot akademiyasi	48.82	11.03	16.64	21.16
12	Urganch davlat universiteti	48.62	12.07	11.4	25.15
13	Samarqand iqtisodiyot va servis instituti	48.35	13.53	15.67	19.15
14	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti	47.95	12.81	18.59	16.55
15	Toshkent pediatriya tibbiyot instituti	47.91	12.24	10.24	25.43
16	Buxoro davlat tibbiyot instituti	47.44	10.44	19.35	17.65
17	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti	47.39	15.16	11.43	20.8
18	Toshkent davlat pedagogika universiteti	46.94	13.31	11.78	21.85
19	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	46.94	13.52	10.65	22.76
20	Toshkent arxitektura-qurilish instituti	46.43	10.57	14.77	21.09
21	Toshkent davlat yuridik universiteti	46.28	16.97	12.87	16.43
22	Namangan muhandislik-texnologiya instituti	44.11	13.37	6.11	24.64
23	Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti	43.19	13.9	9.4	19.9
24	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti	43.11	10.66	11.31	21.15
25	Toshkent farmatsevtika instituti	42.53	10.1	11.06	21.37
26	Samarqand davlat chettillar instituti	42.49	10.79	9.12	22.58
27	Toshkent davlat texnika universiteti	42.25	12.06	9.21	20.97
28	Qarshi davlat universiteti	42.14	9.33	8.89	23.92
29	Milliy rassomchilik va dizayn instituti	42.03	7.97	9.56	24.5
30	Qoraqalpog' davlat universiteti	41.53	9.45	10.66	21.41
31	Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, Qurish va ekspluatatsiya instituti	41.17	7.89	9.76	23.52
32	Navoiy davlat konchilik instituti	40.71	10.08	7.66	22.98
33	Toshkent kimyo-texnologiya instituti	39.79	10.34	10.98	18.47
34	Namangan muhandislik-qurilish instituti	39.76	10.98	6.77	22.01
35	Samarqand davlat tibbiyot instituti	39.69	7.77	9.67	22.25
36	Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi	38.89	5.35	9.75	23.79
37	O'zbekiston davlat konservatoriyasi	38.74	8.38	9.88	20.48
38	Buxoro davlat universiteti	38.55	9.86	6.39	22.3
39	O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi	38.03	13.31	11.62	13.11
40	Buxoro muxandislik texnologiya instituti	38.01	9.58	7.86	20.57
41	Jizzax politehnika instituti	37.92	7.95	8.58	21.39
42	Samarqand veterinariya tibbiyot instituti	37.48	5.22	7.74	24.52
43	Andijon davlat universiteti	36.95	7.16	7.95	21.84
44	Andijon davlat tibbiyot instituti	36.87	6.24	8.38	22.25
45	Farg'ona politehnika instituti	36.85	6.43	6.52	23.91
46	Farg'ona davlat universiteti	36.75	7.91	7.63	21.21
47	Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti	36.66	6.47	7.29	22.89
48	Navoiy davlat pedagogika instituti	36.61	7.62	7.02	21.97
49	Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti	36.22	6.69	8.02	21.51
50	Namangan davlat universiteti	35.93	6.87	5.23	23.82
51	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya sport universiteti	35.9	6.83	7.75	21.32
52	Termiz davlat universiteti	35.21	4.66	7.56	22.99
53	Nukus davlat pedagogika instituti	35.12	7.33	9.08	18.72

54	Andijon mashinasozlik instituti	34.98	6.97	7.63	20.38
55	Guliston davlat universiteti	33.47	5.65	8.23	19.59
56	Qo'qon davlat pedagogika instituti	33.41	5.58	7.53	20.31
57	Jizzax davlat pedagogika instituti	31.07	5.72	5.21	20.14

IF – Professor-o'qituvchilarning ilmiy faoliyati; O'S – O'quv-uslubiy ishlar va o'qitish sifati; TB –

Talabalar bilimi va bitiruvchilar sifati.

Oliy ta'lim muassasalari reytingining maqsad va vazifasi bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda inson kapitaliga bo'lgan ehtiyoj va uni yanada boyitish rivojlanib kelayotgan yosh mamlakatlar uchun ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Oliy ta'lim muassasalari reytingi – oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ichki islohot bo'lib, bunda talabalar, ota-onalar va keng jamoatchilik tizimida bo'layotgan o'zgarishlar va ta'lim muassasalaridagi holatlar haqida shaffof ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Reytingning maqsadi – oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash orqali Respublikamiz oliy ta'lim ta'lim tizimida sog'lom raqobat muhitini paydo qilishga qaratilgan.

Ta'limni demokratlashtirish yetakchi tendensiyalardan biridir amalga oshirishda o'zini namoyon qiladigan zamonaviy ta'limni rivojlantirish va insonning ta'lim olish huquqini, imkoniyatlarini kengaytirish o'z-o'zini tashkil etish va o'qituvchilar va talabalarni tanlash huquqi ta'lim jarayoni, ta'lim usullarining ko'p qirraliligi faoliyati, turli xil ta'lim tizimlari va olish shakllari ta'lim.

Asta-sekin rivojlanib boradigan ta'limni texnologiyalashtirish so'nggi o'n yilliklar va endi "raqamli" ga aylandi inqilob "ta'limni rivojlantirishning yetakchi tendensiyasiga aylandi. Birinchidan axborot, endi esa raqamli texnologiyalarni tubdan ta'lim manzarasini va konfiguratsiyasini o'zgartirdi, hissa qo'shdi ta'limda yangi sub'ektlarning paydo bo'lishiga.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda oliy ta'lim yuqori raqobatbardoshligini ta'minlash uchun quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish lozim:

- sanoat korxonalarini buyurtmalar bilan talabalar o'quv va ilmiy-tadqiqot ishlarini birlashtirish uchun, muayyan firmalar uchun mutaxassislar tayyorlash;
- ta'lim tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish uchun davlat moliyalashtirish miqdorini oshirish;
- ta'lim mablag'lari va kreditlar orqali oliy ta'lim moliyalashtirish uchun muvaffaqiyatli sanoat korxonalarini jalb qilish;
- talabalar intensiv almashinuvini tashkil etish, magistrantlar, yetakchi G'arb universitetlari bilan o'qituvchilar jalb etish;

⁴⁴ <http://reyting.tdi.uz/about/>

⁴⁵ Respublika oliy ta'lim muassasalarining milliy reytingi // <http://reyting.tdi.uz/all/>

- O'zbekiston Oliy ta'lim muassasalarida G'arbiy Yevropa sifat standartlari joriy etish.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining amaliyotini tashkil etishda ham **bir qator muammolar** mavjud:

Amaliyot o'tash joyida ish beruvchi korxona yoki tashkilotda talabalarni amaliyot o'tashi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratilmasligi (ish joylarini tashkil etmaslik, xom-ashyo hamda material bilan ta'minlamaslik, zamonaviy texnika-texnologiyalarga talabalarni yo'latmaslik holatlari);

amaliyot o'tash joyida ish beruvchi (korxona yoki tashkilot)larning aksariyat qismining talabalar amaliyotiga nisbatan befarqligi;

amaliyot o'tash joyida ish beruvchi korxona yoki tashkilot tomonidan tayinlangan talabalar amaliyotiga mas'ul shaxsning o'z vazifasini suiste'mol qilishi (talabalarining amaliyot daftarchalariga "imzo" qo'yib berishi, garchi ular amaliyotga kelmagan bo'lsalar ham).


2.2. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish mexanizmlari

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Oldimizda turgan keng ko‘lamli vazifalarni samarali hal etish, eng avvalo, davlat rahbari sifatida shaxsan mendan, davlat hokimiyatining uchta tarmog‘idan, shuningdek, barcha rahbar va mansabdor shaxslardan qat’iy intizomni talab etadi. Ishimizni to‘g‘ri tashkil etish, uning samaradorligini ta’minlash, butun boshqaruv tizimi faoliyatini sifat jihatidan zamon talablari darajasiga ko‘tarishni bugun hayotning o‘zi talab etmoqda. Albatta, biz rejalashtirayotgan barcha o‘zgarishlarning nihoyatda ko‘pqirrali va o‘ta muhim ekanini men chuqur tushunaman. Biroq, yo‘limizda qanday to‘siq va qiyinchiliklar, keskin va dolzarb muammolarga duch kelsak ham, shoshma-shosharlik bilan, pala-partish qarorlar qabul qilishga, yaxshi o‘ylab ko‘rilmagan xatti-harakatlarga yo‘l qo‘yishga haqqimiz yo‘q”⁴⁶deb ta’kidlashlari, zamonaviy har bir rahbardan samarali boshqaruv qarorlarni qabul qilish, mezonlarni bilishni talab etadi.

Inson kapitali, bu bilim, ko‘nikma va insonga daromad va boshqa foydali narsalarni yaratishga imkon beradigan munosabat ta’siri, hatto XX asrda ham iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omiliga aylandi. Bunga sarmoya kiritish orqali siz yuqori ko‘rsatkichlarga yerishishingiz mumkin. Iqtisodiy o‘sish (yiliga 3-4% yoki undan ortiq o‘sish), bu zarur har qanday mamlakatning global raqobatdagi mavqeini mustahkamlash sharti.

Chet el tajribasidan kelib chiqqan xolda O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayoni bilan bir qatorda faoliyatning barcha turlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni inobatga olib loyihaga “SMART” iborasi kiritilmoqda (7-rasm). Ya’ni: 1) Specific (o‘ziga xos); 2) Measurable (o‘lchab bo‘ladigan); 3) Attainable (erishib bo‘ladigan); 4) Relevant (dolzarb); 5) Time-bound (aniq muddatli).

⁴⁶Sh.M.Mirziyoev. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”.// “Xalq so‘zi”, 2016 yil 8 dekabr



7-rasm. Smart universitet platformasining asosiy komponentlari

Mazkur loyiha oliy ta'lim muassasalarining o'quv, ilmiy va boshqaruv jarayonlarini axborotlashtirishga qaratilgan ma'lumotlar bazalarini, axborot tizimlarini yaratish, ulardan foydalanish, xizmatlar ko'rsatish hamda boshqa axborot tizimlari bilan integratsiya qilinadin oliy ta'lim muassasasining "SMART universitet" yagona platformasining asosiy tamoyillarini belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda, tez o'zgaruvchan sharoitda dunyodagi texnologik o'ziga xoslikni rivojlanishi yaqin kelajakda bir qator kasblar yo'q bo'lib ketishi, yangi tegishli kasblar paydo bo'lishiga zamin yaratadi. O'zbekistonda ham iqtisodiyotning prognoz ehtiyojlari asosida va kelgusi 15-20 yil davomida ijtimoiy soha, kelajak kasblarini aniqlash, yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqishga zaruriyat tug'iladi, unga muvofiq mamlakat oliy o'quv yurtlarida kerakli mutaxassislar tayyorlash parametrlarini ishlab chiqish lozim.

Zamonaviy ta'lim davlatlar ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omilidir. Aynan oliy ta'lim tizimi O'zbekiston iqtisodiyotining ustuvor tarmog'i, davlatning rivojlanish strategiyasining tizim shakllantiruvchi omili, uning milliy xavfsizligining asosi bo'lib, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini belgilaydi.

Dunyo tajribasidan ko‘rishimiz mumkinki, uzoq muddatga mamlakat ta’lim tizimini rivojlantirish uchun alohida keng qamrovli strategiya qabul qilish o‘zini oqlaydi.


O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimining strategik rejalashtirishning asosiy g‘oyasi joriy boshqaruvdan strategik boshqaruvga o‘tishni izohlaydi. Bunda oliy boshqaruv organi vakolatlarini bosqichma-bosqich qisqartirish, oliy ta’lim tizimida bo‘layotgan o‘zgarishlarga o‘z vaqtida munosabat bildirish muhim hisoblanadi. Ya’ni qisqa muddatli ustuvor maqsadlardan uzoq muddatli ustuvor maqsadlarga o‘tish, joriy masalalarni yechimini oriyentatsiya qilishdan kelajakdagi rivojlanishni ko‘zda tutadigan masalalarni yechimini oriyentatsiya qilishga o‘tishni anglatadi.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari uzoq muddatli istiqbolda raqobatbardosh ustivorlikni saqlab qolish maqsadida o‘zining ichki va tashqi imkoniyatlarini namoyon qilishi va tahdidlarga javob berishi lozim.

2017- 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta’lim muassasalariga

qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko‘paytirish” vazifasi belgilangan. Shu vazifalardan kelib chiqib, 2017 yilda 208 ta, 2018 yilda 238 ta, 2019 yilda 273 ta normativ-huquqiy hujjatlarda oliy ta’limga doir vazifalar belgilangan. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi» 5847-son farmoni qabul qilinishi, O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlarining yangi bosqichini belgilab berdi. Mazkur hujjat asosida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish

konsepsiyasining maqsadli ko'rsatkichlari ishlab chiqildi (8-rasm).



8- rasm. Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrovini oshirish

BMTning rivojlanish dasturi (BMTRD) O'zbekistonda o'z faoliyatini boshlagandan buyon ta'lim bo'yicha milliy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari va erishilayotgan natijalarni baholash hamda kelgusida yanada yuksaltirish maqsadida har yili qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Shu nuqtaiy nazardan ham mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsata oladigan oliy ta'lim tizimi va unga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqarishni rivojlantirishga qodir kadrlar bilan ta'minlashni talab etadi.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;
- oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlar asosida amalga oshiriladi:

- oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;
- ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriyetish;
- oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;
- yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;
- oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan masalalar, oliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'limda yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish zarurligini taqozo etmoqda.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda Oliy ta'lim boshqaruv jarayonida rahbar

kadrlarda strategik kompetensiyalarni shakllantirish muhim (9-rasm).



9-rasm. Strategik kompetensiyalar

Bozor shart-sharoitlarida o'z hayotiy layoqatini barqaror saqlashga intiladigan har qanday oliy ta'lim muassasasi pirovard natijada ilm-fan sohasida yoki kadrlar tayyorlash tizimida biron bir yangilikni yaratishga, yangi g'oyalarni amalga oshirishga, ya'ni g'oyalarning moddiylashtirilishiga hamda bozorlarda potensial xaridorlarga sotilishiga erishishi lozim. Oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini tijoratchilik asosida yo'lga qo'yilishi ularni funksional vazifalaridan birmuncha chalg'itishi mumkin albatta, ammo ilmiy-innovatsion faoliyat bilan shug'ullanish oxir oqibatda oliy o'quv yurtlariga moddiy jihatdan o'z-o'zini ta'minlash imkoniyatini yaratib beradi.


Piter Loranj fikriga ko'ra strategik rejalashtirish jarayoni-boshqaruv qarorlarini qabul qilish instrumentlari hisoblanadi va uning vazifasi - Yangilik va o'zgarishlarni amaliyotga joriy etishga qaratilgan:

- 1) Resurslarnitaqsimlash;
- 2) Tashqimuhitgamoslashtirish;
- 3) Ichkikoordinatsiya;
- 4) Tashqitashkiliystategikrejalash⁴⁷ .

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha qo'mitasi (UNESCO) vakon salting tashkiloti (DGP Research & Consulting)hamkorligida jalb qilingan nufuzli xorijiy ekspertlar guruhi tomonidan O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini komplek so'rganish bo'yicha o'tkazilgan

tahlillar natijalari asosida berilgan xulosalarga ko‘ra O‘zbekistonda oliy ta’lim
tizimini rivojlantirish

ning strategic maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari belgilashda mavjud vaziyatni hisobga olgan holda strategic reja tuzish lozim (10-rasm).




10-rasm. OTM strategik boshqaruvida rejalashning o'rni

Ta'lim sohasidagi global tendensiyalar orasida alohida ta'kidlash lozim uzluksiz ta'limning jadal rivojlanishi (ta'lim davomida) butun hayot davomida ta'lim bugungi va uzoq muddatli istiqbolga ega bo'ldi.

Inson taraqqiyotini qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy rasmiylashtirilgan jarayonining tabiati uning tug'ilishidan o'limigacha bo'lgan hayotining barcha davrlari. Bunga ehtiyoj nafaqat texnik va texnologik jarayonlarning tezlashishi bilan bog'liq axborot taraqqiyoti, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari.

OTM strategik reja kamida uchta tarkibni - ta'limning boshlang'ich xolatini, ta'limning kutilayotgan (oxirgi) xolatini va ushbu ikki xolatni bog'lab turuvchi vositalarni qamrab oladi (11-rasm).

⁴⁷Питер Лоранж- Профессор, Президент Цюрихской школы бизнеса GSBA, Магистр в области операционного менеджмента Йельского Университета, Доктор делового администрирования Гарвардской школы бизнеса




11-rasm. Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish

• ОТМларда стратегик режаласhtirish jarayoni quyida savollarga javob topishga qaratilgan:

- Biz kim? Biz qanday ta'lim berish bilan shug'ullanamiz?
- Hozirgi paytda qayerda turibmiz? Ta'lim berish faoliyatining hozirgi holati qanday ?
- Kecha qayerda bo'lgan edik? Kecha bizning ta'lim berish faoliyatimiz nimadan iborat edi?
- Faoliyatimizning kuchli va zaif tomonlari nimadan iborat?
- Qo'limizdan nima ish keladiyu, nima ish kelmaydi?
- Erishmoqchi bo'lgan maqsadlarimizga nimalar to'sqinlik qilayapti?
- Faoliyatimizni rivojlantirishda qanday omillar ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda?
- Biz qayerga ketayapmiz?
- Biz o'zimizning missiyamizni qanchalik yaxshi darajada bajarayapmiz? Bu missiyaimizni undan xam yaxshiroq bajarishimiz uchun nimalar qilinmog'i zarur?
- Qanday ishlarni qilishimiz mumkin? Qanday strategik alternativalar mavjud?
- Qanday ishlarni xal qilishimiz zarur? Bizning strategiyamiz qanday bo'lishi darkor?

• Bizning strategiyamiz strategik muxitdagi o'zgarishlarga qanchalik bardosh bera oladi?

Bu jarayon, mavjud texnologiyalardan farqli ravishda, nou-xau, yangi innovatsion loyihalarni amalga oshirish orqali yangi texnologiyalarni tijoratlashtirishga asoslanadi. Bundan tashqari, AQSHning yetakchi tarmoqlari (80% ga yaqin) universitetlar tomonidan shakllangan yangiliklarni uzatish orqali shakllanadi. Talabalarning innovatsion va tadbirkorlik faoliyati oliy o'quv yurtlari raqobatbardoshligining asosiy omiliga aylandi. Kembridj universiteti esa Kembridj (angl.University of Cambridge 1209 yilda tashkil qilingan) grafligini chinakam innovatsion klasterga aylantirdi. Bilim asoslangan iqtisodiyotning korporativ shaxs sifatida universitet zamonaviy holati tushunchasi "universitet tomonidan taqdim etiladi 3.0", jarayon vazifalar murakkab majmui uchun bir metafora bo'lgan, bunday " ta'lim muassasasi "sifatida," fan, ilmiy tadqiqot "va"uzatish va innovatsiyalarni tijoratlashtirish" (12-rasm).



12-rasm. "Universitet 3.0" modeliga o'tishning jarayonining tarkibiy qismlari

Shuning uchun, universitet 3.0 milliy texnologik tashabbuslar konsepsiyasida universitetlarni rivojlantirishni o'zida mujassamlashtiradi. Oliy o'quv yurtlari boshqaruv strategiyasida asosiy e'tibor yangilik va bilimlarni o'qitish yoki tadqiqotlarni asosiy missiya sifatida olib borish bilan birga innovatsiyalarni uzatish orqali tijoratlashtirishga qaratiladi. Bu faoliyat oliy o'quv yurtlarini "o'z-o'zini

moliyalashtirish" tamoyili asosida moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

O'z navbatida, universitetlarning "universitet 3.0" biznes modeliga aylanish samaradorligi ularning ikki tarkibiy qismdan iborat bo'lgan salohiyatiga bog'liq: kadrlar, ilmiy, moliyaviy va iqtisodiy salohiyat hamda innovatsion salohiyat. Bu davlat yaqin yoki o'rta kelajakda universitetlarni "universitet 3.0" biznes modeliga aylantirish jarayoni uchun strategik boshqaruv tizimini shakllantirishning asosiy asosidir. Zamonaviy universitet biznes modeli asosiy komponentlarini integratsiya kontekstida: (a) bilim ekotizim (yangi bilim olish va joriy etish); (b) biznes ekotizim (aniqlash va yangi bilim natijalari uchun iste'mol ehtiyojlarini amalga oshirish) va innovatsion ekotizim (bilim elementlari va ish ekotizimlari majmui)

Dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari strategik rivojlanishida raqobatbardoshlikning asosiy omili "universitet 4.0" biznes arxitekturasida bo'lajak universitet poydevorini yaratishdir.

Bundan tashqari, zamonaviy virtual makon noan'anaviy sanoat tushunchalar kontekstida futurologik xususiyatlari yangi yondashuvlarga muammo hal missiyalarini o'z ichida rejalashtirilgan "universitet 4.0" va quyidagi qo'shimcha xususiyatlarga erishiladi:

- jamiyat instituti sifatida kelajak haqida bilim berish vazifasini amalga oshiradi;

- yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirishning haydovchisi va yetakchisi sifatida ijodiy bilimlarni, mustaqil g'oyalarni kapitallashtirish vazifasini bajaradi;

- yangi yaratilgan g'oya, loyiha va yangiliklarni universitet dargohlarida o'tkazish amalga oshirilib, "yarim tayyor mahsulot"shaklida ishlab chiqarishga o'tkazilmaydi.

Yuqoridagilar zamonaviy oliy o'quv yurtlarini shakllantirish uchun islohotlarning ustuvor vazifasi bo'lib, kelajakda jahon miqyosida milliy universitetlarni strategik boshqarish tizimining bosh g'oyasini shakllantiradi.

Zamonaviy oliy ta'lim muassasalari o'z biznes arxitekturasini "Kadrlar tayyorlash" klassik missiyasidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish, yangiliklar yaratish, yangiliklarni uzatish, Startap loyihalarini amalga oshirish va loyihalarni faol tijoratlashtirish orqali iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy haydovchisiga aylantiradi. Qo'shma shtatlarda 1980 ning Bayh-Dole Qonuni qabul qilinganidan bir necha yil o'tib, universitetlarda boshlang'ich loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish natijasida 2,000 dan ortiq yangi kompaniyalar yaratildi, unda statistikaga ko'ra, 260,000 ish o'rinlari yaratildi.


Oliy ma'lumotli yuqori malakali kadrlar tayyorlashda hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha quyidagilar taklifetiladi:

- ☐ Korxona va tashkilotlarda amaliyotchi talabalar uchun yetarli shart-sharoit yaratish;
- ☐ Amaliyot o'tash joyida talabalarga ish haqi belgilash yoki amaliyot o'tash bilan bog'liq xarajatlarni qoplash;
- ☐ Amaliyot o'tash vaqti va talabalar sonini ish beruvchi bilan hamkorlikda kelishgan holda belgilash;
- ☐ Korxona va tashkilotlar va hududdagi oliy ta'lim muassasalari bilan yaqindan va o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- ☐ Kadrlarni maqsadli tayyorlash bo'yicha amaliy takliflarni korxona va tashkilotlar tomonidan tayyorlanishini ta'minlash;
- ☐ Hududlarda kadrlarning ish beruvchi korxona, tashkilot va muassasalarning kadrlar tayyorlash va bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash jarayonlari bilan shug'ullanadigan mas'ullarni aniqlash

2.3. Oliy ta'limni rivojlantirishga innovatsiyalarni joriy etish yo'llari

Ta'limda innovatsion faoliyat maqs adga muvofiq tashkil etilgan o'quv jarayonlar texnologiyalarining majmui bo'lib, o'quv jarayonda innovatsion faoliyat doirasida ishlab chiqarish, ta'lim olish, bilim ko'nikmalariga ega bo'lish, texnik, tijorat, bilim ko'nikmalarining nazariy va mustaqil jarayonini tashkil etuvchi faoliyatga doir yangiliklarni qo'llash asosida olib boriladigan faoliyatdir. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyat keng ma'noda o'qitishning yangi zamonaviy

va bilim ko‘nimalarini o‘zlashtirishning yangicha yondashuvlarini o‘z ichiga olgan faoliyat bo‘lib, u ilmiy, texnik, texnologik, tashkiliy moliyaviy va tijorat faoliyatlarining majmui cifatida rivoj topadi. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda biz ta’limdagi innovatsiyalarning ikki xil xususiyati (tashki va didaktik) ga ko‘ra tasniflashni lozim deb topdik (2.2.1-rasm).



2.2.1. Rasm. Pedagogik innovatsiyalarning tacnifiy parametrlari

Pedagogik innovatsiyalarning jadallik bilan amaliyotga kirib borishi natijasida zamonaviy ta’limning innovatsion yo‘nalganligi an‘naviylikdan farqli ravishda quyidagi muhim ahamiyatga ega jihatlarda o‘z aksini topib bormoqda (2.2.2.-racm).

Ta’limning an’anaviy yo‘nalganligi	Ta’limning innovatsion yo‘nalganligi
☐ Texnogen sivilizatsiya ☐ Ta’lim oluvchi – ob’ekt ☐ “Bilimli inson” ☐ Pedagogik idrok etish ☐ Pedagogik chora-tadbirlar ☐ Pedagog-vasiylik	☐ Antropogen sivilizatsiya ☐ Ta’lim oluvchi – sub’ekt ☐ “Harakatlanuvchi inson” ☐ Pedagogik ijodkorlik ☐ Pedagogik munosabatlar ☐ Pedagog-menejer

☐ Birgalikdagi faoliyatning avtoritar uslubi ☐ asoslanganlik	☐ Birgalikdagi faoliyatning demokratik uslubi ☐ Faoliyat, muloqot va shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish orqali ijtimoiylashuvi
---	--

2.2.2-rasm. An’anaviy va innovatsion ta’limning qiyociy tahlili

Innovatsion jarayonning dastlabki (birlamchi) umumlashtirilgan formulasi - quyidagi ko‘rinishga ega:

FT— AT— ICH— L— Q — O‘ — SICH— M— S.

FT - fundamental tadqiqotlar ;

AT - amaliy tadqiqotlar (kashfiyotlardan amalda foydalanish);

ICH - ishlab chiqish;

L - loyihalash;

Q - qurilish;

O‘ - o‘zlashtirish;

SICH - sanoatda ishlab chiqarish;

M - marketing;

S - sotuv.

Innovatsiya - bu innovatsion jarayon boradigan oliy o‘quv yurtlari, ulardagi innovatsion faoliyat va bu faoliyat bilan band bo‘lgan tashkiliy ishlab chiqarish strukturasi boshqarish tamoyillari, uslublari, olinadigan iqtisodiy

samaradorlikni belgilaydigan va shu jarayonga bog'liq formalar to'plamidir.




2.2.3-rasm. Ta'limda iqtisodiy samaradorlik strategiyalar

Yuqoridagi 2.2.3 rasmga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, unga quyidagilar taalluqli:

- ma'lum maqsadni qo'yish va bajarish mumkin bo'lgan strategiyani tanlash;
- sikl bosqichlari:
- olib boriladigan ishlarni rejalashtirish;
- yangilikni amalga oshirish uchun sharoitlarni aniqlash va tashkil qilish;
- ijro etish, modernizatsiyani amalga oshirish;
- innovatsiya ishlariga rahbarlik qilish.

Innovatsiyalar turkumlari.

Innovatsion bozor uchun yangiligi bo'yicha innovatsiyalar quyidagilarga bo'linadi:



2.2.4-rasm. Innovatsion bozor uchun yangiligi bo'yicha innovatsiyalar

Har qanday oliy ta'lim yoki ilmiy tashkilotning ilmiy-innovatsion asosi bo'lib uning ilmiy-texnik salohiyati xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda ilmiy-texnik salohiyatni yoritish uchun alohida tashkil qiluvchilar (kadrlar, moddiy texnik tashkil qiluvchilar) tavsifi va moliyalashtirish ko'rsatkichlari (jami joriy harajatlar va kapital qo'yilmalar) ishlatiladi. Miqdoriy ko'rsatkichlar quyidagilarni qamrab oladi:

- ilm-fan sektorlari va tarmoqlari hamda milliy iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ITTKIga sarflangan harajatlar hajmi;

- ilm-fan sektorlari bo'yicha (fundamental, amaliy OO'Yu, aksionerlik jamiyati), ilm-fan tarmoqlari va fan mutaxassisliklari, shuningdek, milliy iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ITTKI sohasida bandlar soni.

Kadrlar quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- ITTKI bilan bog'liq shaxslarning umumiy soni;

- Faoliyat turlari (fundamental va amaliy tadqiqotlar, ishlanmalar) bo'yicha personal soni; malakaviy guruhlar (yuqori malakali ilmiy xodimlar – fan doktorlari va nomzodlari, ilmiy darajasi bo'lmagan ilmiy xodimlar, oliy va o'rta

maxsusma'lumotli ilmiy-texnik personal, yordamchi personal, ishchi kadrlar) bo'yicha shaxslar soni;

Innovatsion infratuzilma tushunchasining tashkil qiluvchilari orasidagi texnologiyalarni va yangiliklarni uzatishga xuddi o'sha marketing bo'linmalari, patent-litsenziya bo'linmalari ommaviylashtirish, reklama va ko'rgazma qilish faoliyatlarini amalga oshiruvchi bo'linmalarni kiritish mumkin.

2.2.5-rasm

Oliy o'quv yurtlari amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyat

Fundamentaltadqiqot	Tajribaishlari	Marketing izlanishlari
Ishlabchiqarishtajriba si	Ilmiytadqiqotishla ri	Seriyaliishlabchiqarishniyo'lgazo'y ish

Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma'qullanmoqda:

- ☐ Faoliyat yunalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi).
- ☐ Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan).
- ☐ O'zgarishlar ko'lamiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli).
- ☐ Kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Ta'lim samaradorligi baholash ko'rsatkichlari quyidagilar taaluqli:

- ta'lim jarayoni sifati;
- ta'lim sifati va ta'lim olayotganlarning baholanishi;
- o'qiyotganlar ehtiyojini qondirilganligi;
- bilimni ta'lim jarayonining bir qismi sifatida baholash.
- o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash;
- ota-onalar bilan doimiy uzviy bog'likligi.

Hozirgi kunda fan-texnologiyalar va innovatsiya faoliyatini rivojlanishining asosiy indikatorlari va tendensiyalarini tahlil qilish bo'yicha yagona metodologiya mavjud emas. Amaldagi ucullar mavjud statistik va iqtisodiy tahlil uslabiyatiga asoslanadi. Respublika miqyosida bugungi kunda sotilgan mahsulotlar umumiy

hajmida innovatsion tovar, ish va xizmatlar ulushi 2012 yilda 2,9 %, 2013 yilda 3,9%, 2017 yilda 5,8 % ni tashkil etgan. 2019 yilda sotilgan innovatsion mahsulotlar ulushi 6,5% ni tashkil etgan, bu 2017 yildagiga qaraganda taxminan 0,7 foizga oshgan (2.1.1-jadval).

2.2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2013-2019 yillarda innovatsiya faoliyati rivojlanishining muhim ko'rsatkichlari dinamikasi⁴⁸

№	Ko'rsatkichlari	2013 y.		2015 y.		2017 y.		2019 y.	
		jami	sanoat	jami	sanoat	jami	sanoat	Jami	sanoat
1.	Sotilgan mahsulotlar umumiy hajmida innovatsion mahsulotlar ulushi, %	2,9	4,5	3,2	3,9	5,8	8,4	6,5	8,4
2.	Sotilgan innovatsion tovar, ish va xizmatlar hajmining o'cish sur'ati, %	100	100	62,3	54,6	126,4	130,7	116,4	125,4
3.	Innovatsiyalar uchun sarflangan umumiy xarajatlarda tashkilotlarning o'z mablag'lari ulushi, %	60,5	74,9	70,6	75,2	68,4	54,0	36,8	31,0
4.	Innovatsiyalar uchun xarajatlar koeffitsienti	0,014	0,012	0,005	0,004	0,003	0,005	0,026	0,043
5.	Innovatsiyalar uchun xarajatlar hajmining o'sish sur'ati, %	100	100	121,4	63,8	73,0	122,4	72,0	91,1
6.	Innovatsion faol korxonalar ulushi	0,13	0,37	0,07	0,25	0,07	0,23	0,35	1,29
7.	Har bir innovatsion faol korxona hissasiga to'g'ri keluvchi joriy etilgan texnologik innovatsiyalar soni	2,2	3,5	4,4	3,5	3,8	3,9	1,7	1,6
8.	Ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha hamkorlik darajasi	25,5	15,5	15,8	19,3	8,8	16,3	9,2	4,5

2019 yilda respublikamizda 2171 ta korxona tomonidan 18543,3 mlrd so'mlik innovatsion mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarilgan. Ushbu davrda ular tomonidan 1946 ta texnologik innovatsiyalar joriy etilgan. Biroq, innovatsion faol korxonalar ulushi 0,34 foizni, innovatsiyalarni tegishli tarmoq yoki sohalarga joriy etish koeffitsienti esa atiga 1,2 ni tashkil etmoqda, xolos.

Umumiy eksport hajmida innovatsion mahsulotlar eksportining ulushi 1,46 foizdaniborat, xolos.

⁴⁸Innovatsion rivojlanish vazirligi ma'lumotlari asosida

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ilg'or rivojlangan horijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 70-90 foizi innovatsiya faoliyatini rivojlantirish hisobiga olinadi.

Yuqori texnologiyali tarmoqlar innovatsion mahsulotlari ulushi 2017 yilda sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan yuqori texnologiyali mahsulotlar umumiy hajmining 11,1 % ni tashkil etgan. Shu bilan birga, o'rtacha yuqori texnologiyali mahsulotlar umumiy hajmida innovatsion mahsulotlar ulushi 15,3 % ni tashkil etgan.

Innovatsion mahsulotlarni eng ko'p miqdorda eksportga chiqargan korxonalar - bu o'rtacha yuqori texnologiyalar sektori korxonalari bo'lgan. 2017 yilda innovatsion sanoat mahsulotlari eksport hajmida o'rtacha yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi 51,1 % ni, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi esa 6,9 % ni tashkil etgan.

So'nggi yillarda metallurgiya, kimyo va neft-kimyo sanoati, engil va oziq-ovqat sanoati korxonalarining innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi ancha oshdi. Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish umumiy hajmida yoqilg'i sanoatining ulushi kamaygan. Yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishni tarmoqlar bo'yicha differensiyalash tendensiyasi kuzatildi. Innovatsion mahsulotlarning katta qismini (80,0%) oxirgi 2 yilda o'zlashtirilgan tovar, ish va xizmatlar tashkil etadi. Ilk bor o'zlashtirilgan innovatsion mahsulotlar 2018 yilda 18,5% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2019 yilga kelib 15,1 foizni tashkil etgan. Shuning yarmi xorijiy mamlakatlarga sotilgan.

Hozirgi kunda tarkibida ilmiy-tadqiqot muassasasi mavjud bo'lgan vazirlik va idoralarda 7599 nafar yuqori malakali ilmiy xodimlar ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanmoqda, shundan 1070 nafarga yaqini injener-texnik xodimlardir (3.1.2-jadval).

I-IX Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika yarmarkalarida 4200 dan ziyod innovatsion g'oya va ishlanmalar, texnologiyalar namoyish etilib, umumiy qiymati 144,1 mlrd. so'mdan ziyod bo'lgan 4000 dan ortiq shartnomalar imzolandi. Shartnomalarning amalga oshirilishi samarasida

umumiy qiymati 2,2 trillion so‘mlik 62 turdagi yangi mahsulotlar seriyalab ishlab chiqarilmoqda. 59 ta shartnoma doirasida mahsulotlarning tajriba-sinov va sanoat namunalari tayyorlandi⁴⁹

Bundan tashqari, respublikaning nufuzli ilmiy tashkiloti hisoblangan Fanlar akademiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ko‘rildi.

Hozirgi kunda Fanlar akademiyasi tizimida 31 ta ilmiy-tadqiqot muassasasi va 3 ta mintaqaviy bo‘lim faoliyat ko‘rsatmoqda. Fanlar akademiyasi tizimida jami 4387 nafar xodim, shu jumladan 1901 nafar ilmiy xodim, 300 nafardan ortiq fan doktori, 681 nafar fan nomzodi tadqiqot olib bormoqda. Akademiklar 63 kishidan iborat bo‘lib, ularning har biri tegishli korxona va tashkilotlarga biriktirildi.

Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning natijalarini xalqaro ilmiy tahliliy ma’lumotlar bazalariga kiritilgan nufuzli ilmiy jurnallarda chop etish darajasi ancha past.

Misol uchun, 2015-2017 yillarda xorijiy nashrlarda jami 8388 ta maqola chop etilgan bo‘lsa (2007-2016 yillarda - 17 667 ta), ularning 475 tasi Web of Science, 326 tasi Scopus va 1543 tasi boshqa (asosan RINS) ma’lumotlar bazalariga kiritilgan jurnallarda chop etilgan.

⁴⁹Innovatsion rivojlanish vazirligi ma’lumotlari asosida

2.2.2-jadval

Tarkibida ilmiy-tadqiqot muassasasi mavjud bo'lgan vazirlik va idoralarning yuqori malakali ilmiy, injener-texnik xodimlar bilan ta'minlanganligi to'g'rida ma'lumot⁵⁰ (2019 yil 1 yanvarholatiga)

№	Tarkibida ilmiy-tadqiqot muassasasi mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar	Ilmiy-tadqiqot faoliyat bilan bandlari soni	Шу жумладан				Akademiklar	Fan doktorlari	Fan nomzodlari
			Ilmiy xodimlar	Boshqaruv xodimlari	Injener-texnik xodimlar	Boshqala			
1.	Fanlar akademiyasi	3301	1586	50	578	876	26	260	595
2.	Oliy va o'rta maxcud ta'lim vazirligi	153	90	19	38	6	2	18	19
3.	Sog'liqni saqlash vazirligi	1790	684	59,5	274	2146	4	163	336
4.	Xalq ta'limi vazirligi	34	46	10	-	12	-	8	21
5.	Qishloq va suv ho'jaligi vazirligi	2321	870	209	179	1046	8	97	260
	Jami	7599	3230	337,5	1069	4074	40	546	1231

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Web of Science tizimiga kiritilgan jurnallarda chop etilgan maqolalar soni bo'yicha tuzilgan reytingda 91-o'rinni egallamoqda (2.2.3-jadval).

2.2.3-jadval

2007-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzli ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish darajasi bo'yicha faolligi ko'rsatkichlari⁵¹

№	Vazirlik va idoralar nomi	Xalqaro nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar soni	Xalqaro Web of Science tizimiga kiritilgan jurnallarda chop etilgan maqolalar	
			Soni	Foizla
1	Fanlar akademiyasi	7443	171	2,29
2	Oliy va o'rta maxcud ta'lim vazirligi	3915	69	1,76
3	Sog'liqni saqlash vazirligi	438	6	1,37
4	Xalq ta'limi vazirligi	828	44	5,31
5	Qishloq va suv ho'jaligi vazirligi	2601	48	1,84
6	Fanlar akademiyasi	2442	38	1,56
	Jami	17 667	376	2,35

Ilmiy hajmdor mahsulotlar eksporti bilan sanoqli ilmiy-tadqiqot muassasalari shug'ullanmoqda (3-4 ta). Yillik eksport hajmi o'rtacha 5-6 mln. AQSH dollaridan iborat.

Bu esa o'z navbatida mavjud ilmiy-texnologik salohiyatdan samarali foydalangan xolda ilmiy hajmdor mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar va ularning iste'molchilari o'rtasidagi yuqori innovatsion faollikni ta'minlaydigan aniq mexanizmlarni yanada takomillashtirishni hamda ularni mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sur'atlariga to'liq moslashtirishni talab etmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlarini amalga oshirishda o'quv jarayonlarini innovatsion faoliyat doirasida ishlab chiqish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni sanab o'tishni joiz topdik:

- ilmiy salohiyat tarkibi, jumladan iste'dodli olimlar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, yuqori malakali injener-texnik xodimlar mavjudligi;
- ilmiy tadqiqot ishlari mavzusining dolzarbligi va amaliy ahamiyati;
- ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun ilmiy adabiyotlar va boshqa axborot resurslari bilan ta'minlanganligi;
- o'tkaziladigan tadqiqotlar va tadqiqotchilarni moddiy rag'batlantirish uchun moliyalashtirish manbalari;
- ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, shuningdek qabul qilingan reja va chora-tadbirlar boshqaruvi va nazoratini amalga oshirish;
- ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni ta'minlovchi ilmiy-texnik va yordamchi xizmat mavjudligi.

Xulosa o'rnida, ta'lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbusohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

⁵⁰Innovatsion rivojlanish vazirligi ma'lumotlari asosida

⁵¹Innovatsion rivojlanish vazirligi ma'lumotlari asosida

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Hududlarda yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo'limlarning ochilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi. Ta'lim tizimi oldida ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, mustaqil qaror qabul qila oladigan va zamonaviy texnologiyalarga tez moslashishga layoqatli, yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasini qo'yadi.

Yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida oliy ta'lim tizimi oldida bugungi kunda o'z echimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklarsaqlanib qolmoqda, ularni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni bermoqchimiz.

Birinchidan oliy ta'lim bilan qamrov va ta'limsifatini ta'minlash sohasida:

- oliy ta'lim bilan qamrov darajasi pastligicha qolmoqda;
- amaldagi malaka talablari, o'quv reja va dasturlari mazmun jihatidan bitiruvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilmagan, o'quv rejalarida nomutaxassislik fanlari ulushi yuqoriligicha qolmoqda;
- oliy ta'lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari bilan o'zaro hamkorlikda kadrlar tayyorlash bo'yicha ishlar samarali yo'lga qo'yilmagan, ish beruvchilarning oliy ta'lim mazmunini shakllantirishdagi ishtiroki etarli emas;
- talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirilmagan;
- ishlab chiqarish korxonalarida amaliy mashg'ulotlar samarali tashkil etilmagan, tayyorlanayotgan mutaxassislar malakaviy darajasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga etarlicha javob bermaydi;
- profeccor-o'qituvchilarning xorijiy tillar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish darajasi pastligisababli ularning kasbiy mahorati bugungi kun talablaridan ortda qolmoqda;

- o'quv adabiyotlari etishmovchiligi saqlanib qolib, mavjudlarining aksariyat qismi zamon talablariga javob bermaydi, o'quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, xorijiy adabiyotlardan qo'shimcha yoki muqobil o'quv adabiyotlari sifatida foydalanish ishlari etarli darajada tashkil etilmagan;

- oliy ta'lim muassasalarida fan olimpiadalarini o'tkazishning shaffof mexanizmlari joriy etilmagan, olimpiadalar g'oliblari bilan ishlash tizimli ravishda yo'lga qo'yilmagan;

- iqtidorli yoshlar orasidan oliy ta'lim muassasalariga talabalarni saralab olish mexanizmlari mavjud emas;

- pedagog xodimlarning malaka oshirish tizimi samarali tashkil etilmagan, jumladan malaka oshirish muassasalarida o'quv mashg'ulotlari o'tkazish uchun yuqori malakali professor-o'qituvchilar jalb qilinmagan, malaka oshirishga jalb etishda tinglovchilarning salohiyati inobatga olinmaydi;

- oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati mavjud;

Ikkinchidan ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat sohasida:

- oliy ta'lim muaccacalari ilmiy faoliyati hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollaridan kelib chiqib tashkil etilmagan, tahlillar asosida innovatsion rivojlanishni prognozlashtirish faoliyati yo'lga qo'yilmagan;

- innovatsion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalb etish natijadorligi etarli emas, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasi ta'minlanmagan;

- oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati atigi 36,4 foizni tashkil etmoqda;

- ilmiy darajaga ega xodimlarning o'rtacha yoshi 49 bo'lib (fan doktorlari - 56 yosh, falcafa doktorlari va fan nomzodlari - 43 yosh), yuqoriligicha qolmoqda, fan doktorlari orasida nafaqa yoshidagilarning ulushi 45 foizni tashkil etmoqda;

- ilmiy-tadqiqot ishlari ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi mavjud muammolar echimiga qaratilmagan;

- so'nggi yillarda nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarga iqtiboslar soni kamaymoqda;

- ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va yosh olimlar faoliyatini rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmlari yaratilmagan;

Uchinchidan oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash sohasida:

- talabalar turar joylari, kutubxona, o'quv ustaxonalari, laboratoriyalar, sport sog'lomlashtirish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari quvvatlari mavjud ehtiyojni qanoatlantirmaydi, ularning aksariyat qismida bugungi kun talablariga javob beradigan moddiy-texnik baza shakllantirilmagan;

- oliy ta'lim muassasalarining zamonaviy o'quv va ilmiy laboratoriyalar bilan jihozlanish darajasi etarli emas, xalqaro standartlarga javob beradigan o'quv laboratoriya uskunalariningsalmog'i atigi 10 foizni tashkil etadi, shu bilan birga o'quv jarayoni laboratoriya materiallari (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa ob'ektlar) bilan etarlicha ta'minlanmaydi;

- oliy ta'lim muassasalari moliyaviy xarajatlarining asosiy qismi ish haqiga sarflanib, o'quv va ilmiy laboratoriyalarni yangilashga, bino va inshootlarni ta'mirlashga etarlicha mablag' yo'naltirilmayapti;

To'rtinchidan oliy ta'limning jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni ta'minlash sohasida:

- respublika oliy ta'lim muassasalari xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, ularning racmiy veb-saytlari Webometrics xalqaro reytingining 1 000 talik ro'yxatiga kirmagan;

- ta'lim dasturlari va talabalar bilimni baholash tizimi xalqaro standartlarga moslashtirilmagan;
- mavjud talabalar turar joylari hamda ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari xorijiy talabalar ehtiyojlariga moslashtirilmagan;
- xorijiy fuqarolarni mamlakatimizda ta'lim olishga keng jalb qilish borasidagi targ'ibot ishlari, jumladan PR-loyihalar (O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari kunlarini tashkil qilish, taqdimotlar o'tkazish va boshqalar) etarli darajada tashkil qilinmagan, bu borada interaktiv virtual platforma mavjud emas.

Yuqoridagi kamchiliklarimizni tuzatgan holatda, oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini belgilab shu asosda tizimni rivojlantirishning strategik maqsadlarini belgilab olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

2.4 O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalar

Rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasi taraqqiyot bosqichiga ilm-fan, ta'lim, madaniyat va ma'naviyatga e'tibor berganligi tufayli erishgan. Iqtisodiy yutuqlar negizida bilim, ilm-fan va texnologik innovatsiyalarga asoslanib ish ko'rishi sababli jamiyatni rivojlantirganlar. Bu omillar mamlakatni daromadi o'rtacha bo'lgan bosqichdan daromadi yuqori davlatlar darajasiga olib chiqishda, tinch va barqaror jamiyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday natijalar yuksak bilimga, ta'lim sohasidagi yutuqlarga, eng ilg'or texnologiyalar ustuvorligi va tadbirkorlik g'ayrat-shijoatiga tayanadi. Shu boisdan ham dunyoning yetakchi davlatlarining ko'pchiligida XXI asrda ta'limni yanada rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Masalan, Germaniyada «2000 yilda ta'lim», AQSHda «Amerikaliklar uchun XXI asr ta'limi», Fransiyada «Kelajak ta'limi», Yaponiyada «XXI asr uchun ta'lim modeli» kabilar qabul qilingan. O'zbekistonda esa dunyo davlatlari e'tirof etayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997), ya'ni kadrlar tayyorlashning milliy modeli qabul qilingan“O'sib kelayotgan avlod

taqdiriga hech kim befarq bo'la olmaydi. Bunda oliy o'quv yurtlarining ahamiyati kattadir. Yoshlarni qay usulda o'qitish, ularni tarbiyalash, mustaqil mamlakatning yetuk mutaxassislari bo'lishiga qayg'urish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bunda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi saviyasini jahon andozalari darajasiga yetkazish, xalq xo'jaligida mutaxassisliklarga bo'lgan talab va ehtiyojlarni ilmiy tahlil asosida aniqlash, xorijiy mamlakatlar tajribasidan oqilona foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridandir ”.


Darhaqiqat, Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, hozirgi kunda O'zbekistonning iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojiga mos keladigan, yuksak malakali xorijiy mutaxassislar bilan raqobat qila oladigan yuqori salohiyatli kadrlarni tayyorlash ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimi rivojlanishining muhim vazifalari sifatida ilg'or innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini hamda bu boradagi ilg'or xorijiy tajribalarni ta'lim jarayoniga joriy etish masalasini e'tirof etish mumkin. Ma'lumki, har bir kompetentli o'qituvchi o'qitishning zamonaviy texnologiyani o'zlashtirishda o'z yo'li va uslubiga ega bo'lishga, shuningdek, o'z didaktik vositalarini ishlab chiqishga urinib ko'rishga harakat qiladi. Ularning yuqori cho'qqisi esa o'qitish texnologiyalarni ishlab chiqish bo'lib hisoblanadi. “Oilaviy shifokorligi mutaxassisligi” bo'yicha umumiy malaka oshirish kursida innovatsiya – bu yuqorida keltirgan soha talabidan kelib chiqqan holda, malakali mutaxassis tayyorlash uchun fanning o'qitishda barcha yangi ilg'or pedagogik texnologiyalarini qo'llash. Natijada fanning yoritib berishda yuqori natijaga erishishdir deb bilaman.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

O'qitishning interfaol uslubiyotlari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash

imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman talabalarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.



2.4.1. Rasm. Interfaol usullarining xususiyatlari

Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orkali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

- talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;
- talabalarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiylikni ta'minlanishi;
- talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;
- pedagog va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishlari kiradi.

Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya - faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, proyektor yoki boshqa texnik vositalar. Bizning fikrimizcha,

pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - o'qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'qitish jarayonida talaba lar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu - o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

O'qitish jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

O'qituvchi va talabaning qo'yilgan maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani qo'llashlari ular ixtiyoridadir, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, qo'llaniladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, "Iqtisodiyot nazariyasi" fanini o'zlashtirish bo'yicha ko'proq amaliyot bilan bog'langan holda korxona va tashkilotlarda dars o'tish katta ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlab o'tish joizki bizning talabalarda innovatsion g'oyalarni faol rivojlantirish uchun ko'p imkoniyatlar mavjud. Biroq g'oyalarni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalarining pedagoglaridan innovatsion faolligini talab darajasiga olib chiqishni taqazo qiladi.

Ta'limga innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyatini qo'yidagilar bilan izohlash mumkin:

1. Fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzluksiz ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ta'limdagi innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish;

2. Talaba-yoshlardagi ma'lumotlilik darajasi, intellektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish;

3. Pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati.

Quyidagi jadvalda "Iqtisodiyot nazariyasi" fanini an'anaviy va innovatsion modelda o'qitishning qiyosiy xarakteristikasi keltirilgan.

2.4.2 – jadval

An'anaviy va innovatsion modelidagi ta'limni qiyosiy xarakteristikasi

Asosiy Xarakteristikasi	An'anaviy o'qitish modeli	Innovatsion ta'lim modeli
Maqsadi	O'qitish natijasi (dastur asosida axborotni o'zlashtirish)	O'qitish jarayonida o'qishga o'rgatish
Talabaning roli, o'rni	Passiv eshituvchi, tinglovchi	O'quvchining faol ishtiroki
Pedagogning roli, o'rni	Bilim beruvchi manba	Tashkilotchi, menejer, boshqaruvchi
Bilim berish shakli	Tayyor holda, verbal matnlar shaklida	Interfaol, o'yinli, muammoli, mustaqil mutoala, izlanuvchanlik.
Olgan bilimlaridan Foydalanish	Topshiriqlar, masalalar, yozma ishlar	Bilimni kundalik faoliyatda ishlatish
O'quv faoliyati Formalari	Frontal, ma'ruza, shaxsiy tayyorgarlik	Yakka, juft, kichik va katta guruhlarda o'quv jarayonini olib borish

“Oilaviy shifokorlik mutaxassisligi” bo‘yicha umumiy malaka oshirish kursi fanini innovatsion faoliyatda olib boradigan bo‘lsak, quyidagi natijalarga erishiladi:

- o‘qituvchilarni yangilikka intiluvchanligi, ularni yaratish, izlab topish ko‘nikma, malakasi shakllanadi.
- uzluksiz o‘z mahorati ustida ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.
- innovatsion muhitda, ilg‘or texnologiyalarni, interfaol usullarda ishlash malakasi paydo bo‘ladi.
- talabalarning motivatsiyasi, faolligi, ma’suliyatini oshirish asosida uni o‘quv jarayonini harakatlantiruvchi kuchga aylantiradi. U o‘z navbatida ta’limda sifat va samaradorlikni kafolatlaydi.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta’lim jarayoniga kirib kelishi an’anaviy o‘qitish usullariga qo‘shimcha ravishda yangi o‘qitish shakli - masofali o‘qitish yaratilishiga omil bo‘ldi.

Masofali ta’limda talaba va o‘qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o‘zaro maxsus yaratilgan o‘quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo‘ladilar. Xozirgi kunda masofali o‘qitish bo‘yicha dunyoning ilg‘or o‘quv oliygoh va markazlarini misol qilishimiz mumkin bular: Massachusetts Institute of Technology, Open University, Stanford⁶, MBA General⁷, «INTUIT»⁸ va boshqalar. Internet texnologiyasini qo‘llashga asoslangan masofali o‘qitish jahon axborot ta’lim tarmog‘iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o‘zaro aloqa tamoyiliga ega bo‘lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi.

O‘quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta’lim mazmunini, ta’lim maqsadi, kutilayotgan natijani aniq belgilash, ta’lim metodlari, shakllari va vositalarini to‘g‘ri tanlash, o‘quvchi va talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashni real mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg‘ulotga ajratilgan vaqt

⁶ <http://online.stanford.edu>

⁷ <http://open-mba.ru>

⁸ <http://www.intuit.ru>

ichida ularni samarali amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar an'anaviy o'qitishga muqobil yo'l sifatida paydo bo'lib, yangi pedagogik nazariyotda va amaliyotda to'planib kelingan barcha progressiv vositalarni o'zida qamrab olgan.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda talabalarning ijodiy fikrlarini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatishi, sohaga oid tushunchalarni chuqur tushunishi, nazariy masalalar bilan amaliyotni bog'lash mahoratini hosil qilishlari uchun ma'ruza ma'lum bir yo'nalishga, texnologiyaning asosiy qonunlari, jarayonlarini, taraqqiyotning muammolarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shuningdek, yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirish, hayot kechirish tarzini tanlashning tarbiyaviy ahamiyatini oshirishi lozim. Ilmiyligi jihatdan nazariya asoslarini amaliyot bilan, masalaning qo'yilishini ilmiylik bilan hamda iqtisodiyotning yangi dolzarb masalalariga ijodiy yondashish bilan, nazariy dalillarning mantiqiylik bilan uzviy birligi ta'minlanishi kerak bo'ladi. Bunda professor-o'qituvchilarning mashg'ulotlarga bo'lgan yondashuvi katta ahamiyat kasb etuvchi omil sifatida e'tirof etiladi (1.2-rasm).

Hozirgi paytda ta'lim jarayonida interaktiv usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, interfaol metodlarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida talaba asosiy bo'g'inga aylanadi. Mashg'ulotlarni an'anaviy va interfaol metodlar orqali olib borishning farqli jihatlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

2.4.3.-jadval

Mashg'ulotlarni an'anaviy va interfaol usullar orqali olib borishning farqli jihatlari

№	Asosiy tushunchalar	An'anaviy dars	Interfaol dars
1	Qo'llanish darajasi bo'yicha	Barcha mavzular bo'yicha ular uchun qulay bo'lgan darsturlari shaklida qo'llaniladi.	Barcha mavzular bo'yicha interfaol darsning qulay bo'lgan turlari shaklida qo'llaniladi.
2	Darsning maqsadi bo'yicha	Darsda bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlash.	Dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o'rgatish.
3	O'qituvchining vazifalari va ish usullari bo'yicha	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat uchun topshiriqlar berish.	O'quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish, yakuniy xulosalarni asoslab berish.
4	Darsga tayyorgarlik bo'yicha qo'yilgan talablar	Dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash.	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqilishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash.
5	O'quvchilar tayyorgarligi bo'yicha talablar	Oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish.	Yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish.
6	O'quvchining vazifalari va ish usullari bo'yicha	O'qituvchini tinglash va o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish.	O'qituvchi bergan topshiriqlar-ni bajarish bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z fikr, xulosalarini boshqalarning fikri bilantqaqqoslash va yakuniy xulosaga kelish
7	Вакт тақсимои бўйича Vaqt taqsimoti bo'yicha	Dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi	Dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishlari, fikr almashishlari, mushohada qilishlari, o'z xulosalarini bayon qilishlari va himoya qilishlariga sarflanadi.
8	Darsning modul va algoritmi	Darsning modul va algoritmlaridan har biro'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi.	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga asosan o'tkaziladi.


9	Ўқувчиларнинг фаоллик даражаси О'қувчиларнинг фаоллик даражаси	О'қитувчи har tomonlama faol, o'quvchilar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo'yicha faol.	О'қитuvchinini ham, o'quvchilar ham har tomonlama faollashtiruvchi shakllar: o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-kichik guruh; kichik guruh-kichik guruh va h.k.
10	Kutiladigan Natija	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'z fikr, xulosalarini shakllan-tirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish

Interfaol mashg'ulotning jadvalda ko'rsatilgan jihatlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'quv rejadagi fanlarni o'qitishda qaysi mavzular bo'yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur.

2. Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun o'quvchilar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.

3. Interfaol mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.



2.4.4.Rasm. Professor-o'qituvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan yondashuvi

Mashg'ulotlar davomida interfaollik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ta'lim jarayoni ham shunchalik samarali bo'lishi hech kimga sir emas. Ular o'quvchi talabalarda mantiqiy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk **mutaxassis bo'lishlariga**

hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Interfaol usullarni tanlash mezon – ularning ta'lim va tarbiya, rivojlantirish masalalarini yechishga yuqori yo'nalganligidir. Bu mezon turli xil metodlarni u yoki bu doiradagi vazifalarni yechish imkoniyatlarini baholash yo'li bilan joriy etiladi, chunki ijtimoiy tajriba elementlarini o'zlashtirishda ularning imkoniyatlari turlichadir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan, interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlashdan iborat, ya'ni u pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Quyida 1.3-rasmda keltirilgan piramidani tahlil qilar ekanmiz, o'qitish samaradorligi faol usullardan foydalanilganda yana bir bora eng yuqori bo'lishiga ishonch hosil qilamiz.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o'zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog'liq xususiy nazariyasiga ega. U birinchi galda o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo'naltiriladi, o'qitishning axborotli vositalaridan, didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.


O'quv faniga yo'naltirilgan zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan eng asosiysi modulli ta'lim texnologiyasi bo'lib, modulli ta'lim an'anaviy ta'limga muqobil ravishda paydo bo'lgan va zamonimizning pedagogik nazariyasi hamda amaliyotida to'plangan barcha ilg'or g'oyalarni yaxlit holatga keltirgan. Modulli o'qitish texnologiyasi modullarga asoslanadi. Shu o'rinda modul tushunchasiga aniqlik kiritaylik. “Modul” lotincha so'z bo'lib, bu maqsadli vazifali tugun, unda o'quv mazmuni va unga egalik qilish texnologiyasi birlashgan yoki modul – ma'lum hodisa, qonun, bo'lim, yirik

mavzu, yoki o'zaro bog'liq tushunchalar guruhini o'z ichiga oladi, yoki o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi bo'lib, o'quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, modulni ba'zan bo'lim yoki blok deb ham tushunishadi. O'qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta 1972 yil YUNESKOning Tokiodagi Butunjahon Konferensiyasida so'z yuritilgan edi. 1982 yilda esa YUNESKOning anjumanida modulga "Mashqlarni xususiy tezlikda diqqat bilan tanishish va ketma-ket o'rganish orqali individual yoki guruh mashg'ulotlarida bir yoki bir necha malakaga ega bo'lish uchun mo'ljallangan alohida o'rgatuvchi paket (to'plam)" deb ta'rif berilgan edi.

Modulli o'qitish texnologiyasini joriy etish negizida yangicha pedagogik tafakkurni rivojlantirish, o'qitishning innovatsion usullarini va texnologiyalarini yaratish kunning dolzarb vazifalardan biridir, chunki, ular o'qitish sifati va samaradorligini oshiradi

Modul texnologiyasining mohiyati, ta'lim jarayonini modullar (o'quv predmeti va uning bo'limlari mazmunini tartibga solish, ta'limning muayyan bosqichidan boshlab bo'linmaydigan kasbiy faoliyatni mantiqan tugallangan qismlarga ajratish)asosida loyihalashtirishdan iborat ekanligini yuqorida aytib o'tdik. Shundan so'ng, ajratilgan har bir modul bo'yicha shu modulning o'zigagina taalluqli bo'lgan faoliyat mazmuni va ta'siri doirasi belgilanadi. Modul texnologiyasi maqsadini ro'yobga chiqarish uchun modul bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda sodir etilayotgan har bir harakatga o'quv elementi sifatida qaraladi. Har bir modul bo'yicha tayyorlanadigan o'quv

elementlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:



2.4.5 Rasm. Ta'lim samaradorligi piramidasi.

- ☐ o'qish davrini to'liq qamrab olgan modulli dastur;
- ☐ har bir modul bo'yicha nazariy materiallar (ma'ruza);
- ☐ o'quv-uslubiy tarqatma materiallar;
- ☐ har bir modul bo'yicha individual topshiriqlar;
- ☐ o'quv ilmiy adabiyotlar ro'yxati;
- ☐ har bir modul bo'yicha mustaqil ishlar uchun topshiriqlar;
- ☐ har bir modul bo'yicha nazorat topshiriqlarini qamrab oladi.

Modulli o'qitishning asosiy talablari quyidagicha:

- ☐ har bir modulning mazmuniga barcha materialni o'zlashtirib olish bo'yicha maqsadning belgilanishi;

□ modul bir va bir necha didaktik maqsadga erishishni ta'minlashga qaratilishi;

□ modullar mazmuni mustaqil fikrlash, mantiqiy o'ylash va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan bo'lishi;

□ kasbiy-ijodiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulning o'quv material mazmuni muammoli tarzda berilishiga erishish shular jumlasidandir.


Modulli ta'lim texnologiyasi aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasining bosh tushunchasi – faoliyatning yo'naltirilganligi asosida joylashadi. O'quv-bilim olish faoliyatining individual sur'ati modulli ta'limga dasturlashtirishdan kelgan. Modulli ta'limda hammasi oldindan rejalashtirilgan: o'quv materialini o'rganishning izchilligi, egallanishi zarur bo'lgan asosiy tushunchalar, ko'nikmalar va mahoratlar ro'yxati, o'zlashtirish darajasi va o'zlashtirish sifatining nazorati. Modullar miqdori ham fanning xususiyatlariga, ham ta'lim nazoratining istalgan chastotasiga bog'langandir.

Modulli o'qitishda ta'lim oluvchilarning bilim, malaka, ko'nikmasi qat'iy ravishda nazoratning reyting tizimida baholanishini zaruriyat qilib qo'yadi. Demak, modulli ta'lim nazoratning reyting tizimi bilan chambarchas bog'langan bo'lib, modul qanchalik katta va muhim bo'lsa, shuncha ballar soni unga ajratiladi.

Nazoratning reyting shakli shak-shubhasiz ustunliklarga ega bo'lib, joriy, oraliq va yakuniy nazorat shaklida amalga oshiriladi. Oraliq nazorat ta'lim va teskari aloqa vositasi bo'lib, nazoratning ayrim bo'g'inlarini baholashning kengaytirilgan tadbiri uning ishonchliligini ta'minlaydi. Nazoratning kengaytirilgan tadbiri joriy nazorat dalil-asos va tarbiyaviy funksiyalarni amalga oshiradi va o'quvchi-talabada o'z-o'zini baholash malakalarini oshirishga va kasbiy faoliyatda o'z-o'zini nazorat qilish malakalari va ko'nikmalarini shakllantirishga imkoniyat beradi. Modul tizimida reyting nazoratini ishlab chiqish uchun ikki guruhdagi vazifalarni yechish talab etiladi:

1) Mazmun bo'yicha: fanni to'la idrok etish, shuningdek mazmunni o'zlashtirish darajalari uchun mazmunini tahlil qilish, mavzuni, bo'limlarni, asosiy qonunlar va tushunchalarni ajratib ko'rsatishni bilish majburiyiligi.

2) Faoliyat bo'yicha: faoliyatning har bir turini tahlil qilish, uni izchil amallar majmui sifatida taqdim etish. Har bir amalni bajarishning uch darajasini o'rnatish va ushbu darajalarga mos keladigan har bir darajani baholashning va natijalarni taqdim etishning mezonlarini shakllantirish.



2.4.6. Rasm. Zamonaviy ta'lim shakllari⁹.

Shuning uchun ham ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar pedagogik texnologiya va uning tarkibiy qismi bo'lgan modulli o'qitish texnologiyasi asosida o'quv mashg'ulotlari loyihalarini tuzib, bu texnologiyaning mazmun-mohiyatini tushungan holda ta'limdagi faoliyatlarini tashkil etsalar, ta'lim sifati va samaradorligi keskin oshishi kafolatlanadi.

Blended learning - onlayn o'quv materiallari hamda o'qituvchi rahbarligida guruhda ta'lim olishga asoslangan o'qitish shakli.

Masofali ta'lim - masofada turib o'quv axborotlarini almashish vositalariga asoslanuvchi maxsus axborot ta'lim muhiti yordamida ta'lim xizmatlari to'plamidan iborat. Masofali ta'lim axborot - ta'lim muhiti foydalanuvchilar ta'lim olish ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan ma'lumotlar uzatish vositalari axborot resurslari o'zaro aloqalar protokollari apparat - dasturli va tashkiliy-metodik ta'minotlar sistemali - tashkiliy to'plamidan iborat.

⁹ Fayzullayeva D.M., Lutfullayeva N. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. Moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent 2016 yil.

Vebinar usulida dars seminar yoki konferensiya internet orqali bir vaqtda hozir bo'lgan talabalar bilan audio-video bilan jonli olib borilib ushbu dars keyingi foydalanishlar uchun yozib olinishi mumkin bo'lsa-da butun o'quv yoki kurs jarayonidagi darslar yagona platforma doirasida o'zaro uzviy bog'lanmaydi, ya'ni alohida-alohida bir martalik darslar bo'ladi deyish mumkin.

Mahorat darslari – ochiq tashkil etilib, ilg'or pedagogik tajribalarni targ'ib etishga yo'naltirilgan samarali o'qitish shakli. Mahorat darslarini tashkil etishda ko'p yillik ish tajribasiga ega, shuningdek, samarali metodika yoki texnologiyaga ega innovator pedagoglarning kasbiy malakalari ochiq tarzda, interfaol muloqot asosida hamkasb pedagoglar hamda talabalarga namoyish etiladi. Muammoli ta'lim metodi faol o'qitish metodlaridan biri bo'lib, o'zining yuksak ko'rsatkichi bilan boshqalaridan ajralib turadi. Muammoli vaziyat o'z ichiga quyidagi muhim tomonlarni qamrab olishi mumkin, goho ularni bosqichlar deb yuritish qabul qilingan. Birinchidan, muammo qo'yilishini inson tushunib yetishi, ya'ni topshiriq ifodalanishini anglashi, ikkinchidan, muammoni hal etishga yordam beruvchi vosita, usul, yo'l, aqliy harakatlarni shaxsning o'zi izlab topishi va ularni ma'lum tizimga solish, uchinchidan, inson muammoni hal etish uchun saralangan usullarni avvalgi usullardan ajratish, ya'ni ularning salbiy tomonlarini olib tashlash, to'rtinchidan, o'quvchi muammo yechimining to'g'riligiga ishonch hosil qilishi uchun tanqidiy nuqtai nazardan tekshirib chiqishi kabilar.

Evristik usullar o'qituvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Evristik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi. O'quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib oladilar va uning yechimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O'rnatilgan masalani yechish davomida o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib

borish ko'nikmasi tajribasini egallaydilar.

Insert jadvali. Bu jadval talablarni mustaqil o'qish, ma'ruza tinglash jarayonida olinadigan ma'lumotlarni yaxlit bir tizimga keltirishga, oldindan olingan ma'lumotni yangisi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatini shakllantirishga o'rgatadi.

Klaster (Klaster - tutam, bog'lash) - bu ma'lumot xaritasini tuzish vositasi-barcha fikr konstitutsiyasini fokuslash va aniqlash uchun asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ishdir.

Toifalash jadvali. Toifa - mavjud holat va munosabatlarni aks ettiradigan belgi (umumiy). Toifalash jadvali ajratilgan belgilarga ko'ra olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi, tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Konseptual jadval - o'rganilayotgan xodisa tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo'yicha taqqoslash imkonini beradi. Tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

BBB jadvali - Bilaman, Bilishni xoxlayman, Bildim. Matn (mavzu, bo'lim) bo'yicha tadqiqot ishlari olib borish imkonini beradi, tizimli mulohaza qilish, tarkibga ajratish ko'nikmalarini beradi.

T –jadval - bitta konsepsiya(ma'lumot)ning jihati o'zaro solishtirish bo'lib, tanqidiy mushohadani rivojlantiradi.

SWOT-tahlil jadvali - korxona resurslari holatini tahlil qilish va baholash vositasi. Bu kabi tahlilni korxona bo'yicha umumiy tarzda yoki alohida muammo yoki loyixa bo'yicha ham amalga oshirish mumkin. Tizimli mushohada qilish, taqqoslash, solishtirish, taxlil va sintezni amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Loyihalash metodi - kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, loyiha, ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikr.

Aqliy hujum - bu uslubda qo'yilgan savol, maummo, masala butun guruh

bilan birgalikda muhokama kilinadi. U talabalarni o'quv jarayonida mashg'ulotlarga faol qatnashishlarini ta'minlash va bayon qilish chog'ida boshqalarning ham fikrini jalb qilish, o'z fikrlarini aytishga yo'naltiruvchi metoddir.

Bahs - o'z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama kilish, xaqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilishdir.

Muzokaralar – eshitish bu aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlari almashinuvidir.

Pinbord texnikasi - muammoni hal etish bo'yicha g'oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Delfi texnikasi - muammoni hal etishning jamoali baholash va tanlash imkonini beradi.

6-6 texnikasi - qo'yilgan muammoni hal etish bo'yicha jamoa tomonidan ifodalangan variantlardan eng yaxshisi baholanadi va tanlanadi, keyin quyidagi harakatlar algoritmgga muvofiq ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi.

Modulli o'qitish - fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar beruvchi muammoli va yo'riqli ma'ruzalar o'qilishini taqozo etadi va ta'limning istiqbolli tizimlaridan biridir.

Keys stadi - talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatishda muammoli vaziyat hosil qilib, uni yechishni o'rganish usulidir. Olib borilgan tadqiqotlarida aniqlanishicha xorij mamlakatlarining oliy o'quv yurtlarida modduli kredit usuli keng joriy etilgan bo'lib, o'quv mashg'ulotlarining ko'pi innovatsion ta'lim shaklining "Keys stadi" usulida o'tiladi. Mamlakatimizdagi ta'lim sohasida keys stadi, asosan, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida, ayniqsa boshqaruv sohasida qo'llaniladi. Keyingi yillarda oliy o'quv yurtlarida ham o'qituvchilarning keyslarni ishlab chiqish va amalga oshirishga qiziqishi oshayotganligi kuzatilayapti.

Keysning afzalligi shundaki, u dastlab talablarga auditoriya sharoitlaridayoq boshqaruvchilik yechimlarini qabul qilishga doir malaka va ko'nikmalarni egallash imkonini beradi. Kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun o'zining

boshqarish siyosatini ishlab chiqish uchun talabalar korxonada va umuman iqtisodiyotda vujudga keladigan turli xil vaziyatlarni tahlil etish malakalari va ko'nikmalarini egallashi, tahlil qila bilish qobiliyatini o'stirishi, boshqaruvchiga xos xususiyatlarni orttirishda yordam beradi.

Talabalarning keyslarni ishlab chiqish texnologiyalarini o'zlashtirishi, keysda taqdim qilinadigan amaliy muammoli vaziyatlarni tahlil etish, yakka tartibda va jamoa bo'lib ularni optimal hal qilish yo'llarini izlash malakalarini egallashi, bo'lg'usi mutaxassisda funksional vakolatlilikni shakllantirish - kasbiy faoliyatda o'zining boshqarish va tashkil qilish texnologiyalarini loyihalashtirish, kasbiy jarayon mantig'ini qurish usullari, shuningdek kasbiy vazifalarni mustaqil va mobil tarzda hal etish usullarini hosil qilishga yordam beradi.

Keysda har xil hayotiy vaziyatlar bayoni beriladi va ularning oqibatlari xususida mushohada yuritish yoki qatnashchilar harakatlarining samaradorligini baholash yoxud muammoni hal etish usullarini taklif qilish talab etiladi.

Lekin har qanday holatda ham amaliy harakat modeli ustida ishlash ta'lim oluvchilar – bo'lg'usi mutaxassislarda mehnat bozori talab qiladigan kasbiy jihatdan muhim xususiyatlarni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Modulli o'qitish - o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta'lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

An'anaviy ta'limda o'quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya'ni bilim berishga yo'naltirilgan bo'lsa, modulli o'qitishda ta'lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan bo'ladi. Modulli o'qitish texnologiyasining an'anaviy o'qitishdan farqli xususiyatlarini quyidagi jadvalda keltiramiz.

2.4.7- жадвал.**Modulli o‘qitish texnologiyasining an’anaviy o‘qitish texnologiyasidan
farqli jihatlari ¹⁰**

An’anaviy o‘qitish texnologiyasi	Modulli o‘qitish texnologiyasi
Bir tomonga yo‘naltirilgan axborot. Bir tomonlama muloqot (darslik→o‘qituvchi→o‘quvchi) • Axborot olish • Xotirada saqlash Ma’nosini tushunmagan holda mexanik tarzda yodlash.	Fikrlash va amaliy faoliyat orqali tahsil olishda faol ishtirok etishni rag‘batlantirish. Ikki tomonlama muloqot Tahlil qilish orqali ma’lumotni eslab qolish Bilim va ko‘nikmalarni namoyish etish Mazmunni tushunish va hayotga bog‘lash.

Modulli o‘qitish ta’limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi:

- modul – faoliyatlik asosida o‘qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarini o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta’minlaydi;
- o‘qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o‘rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o‘qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbga qiziqtirish asosida faollashtirish mustaqillik va o‘qitish imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish.

Modulli o‘qitish usulidan foydalanish uchun avvalo quyidagilar ta’minlangan bo‘lishi lozim:

- ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o‘qituvchilar tarkibi darajasi;
- talabalar tayyorgarligi darajasiga;
- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;

¹⁰ Lutfullayeva N. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. Moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent 2016 yil.

- modullar natijasi va tahliliga. **Modulli o‘qitishda** o‘quv dasturlarini to‘la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o‘qitish imkoniyati yaratiladi. Ya’ni o‘qitishni individuallashtirish mumkin bo‘ladi. Modulli o‘qitishga o‘tishda quyidagi maqsadlar ko‘zlanadi:

- o‘qitishning uzluksizligini ta’minlash;
- o‘qitishni individuallashtirish;
- o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- o‘qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o‘zlashtirishga erishish.

Modulli o‘qitish fanning asosiy masalalari bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlar beruvchi muammoli va yo‘riqnomali ma’ruzalar o‘qilishini taqozo etadi. Ma’ruzalar talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog‘i lozim.

Modul amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari ma’ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma’ruzalar mazmunini o‘rganiladigan yangi material bilan to‘ldirilishi kerak.

Modulli o‘qitishni samarali amalga oshirish uchun o‘qitishning quyidagi usullarini qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- muammoli muloqotlar;
- evristik suhbatlar;
- o‘quv o‘yinlar;
- loyihalash va yo‘naltiruvchi matnlar va hokazo.

O‘qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari aniqlandi:

- fanlar va fanlar ichidagi modullar orasidagi o‘qitish uzluksizligini ta’minlanishi;
- har bir modul ichida va ular orasida o‘quv jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvofiqligini o‘rnatilishi;
- fanning modulli tuzilish tarkibining moslashuvchanligi;
- **talabalar o‘zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so‘ng) qilinishi;**

- talabalarining zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng o'qituvchi ayrim talabalarga fanni individallashtirishni tavsiya etishi mumkin);

- axborotni «siqib» berish natijasida o'qitishni jadallashtirish auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti tarkibini ma'ruzaviy amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlari individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni – optimallashtirish.

Bularning natijasida talaba yetarli nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmaga ega bo'ladi.

XULOSA

Prezidentimizning 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”⁵²gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta'lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilangan.

Hujjatda ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta'lim muassasalarini qurish, ta'mirlash va kapital ta'mirlash barobarida ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash nazarda tutilgan bo'lib, hozir ham ta'lim tizimi takomillashmoqda. Unga ko'ra, 2017-2021 yillarda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish dasturini ishlab chiqildi, o'quv dasturlarini yanada takomillashtirildi, pullik xizmatlar ko'rsatish va moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini izlashda oliy o'quv yurtlarining vakolatlarini kengaytirish yo'li bilan ularning mustaqilligi bosqichma-bosqich rivojlantirilishi davom etmoqda. Bundan tashqari, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ma'lum qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi.

⁵² <https://lex.uz/docs/3107036>

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari belgilashda qo‘yidagi jihatlarga e’tibor qartaish maqsadga muvofiq:

□ oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish;

– oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish;

– □ oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ilm-fanni rivojlantirish, o‘qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish;

– □ oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish;

– □ oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, oliy ta’lim, fan va ishlab chiqarishning o‘zaro mustahkam integratsiyasini ta’minlash, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni keng jalb etish hamda ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

– □ oliy ta’lim sohasida **davlat-xususiy sheriklikni** rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish;

– □ oliy ta’lim mazmunini **sifat jihatidan yangi bosqichga** ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan **yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini** yo‘lga qo‘yish;

– □ xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga oliy ta’lim muassasalarida **texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startup, akselerator** markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va **prognozashtiruvchi** ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish.

□ o‘quv rejasi va fan dasturlarida sohaning zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari, yuqori unumli va ilg‘or texnologiyalar bo‘yicha bilimlarni aks ettirish,

ta'lim berish jarayonida nazariya va amaliyot birligini ta'minlash orqali universitet bitiruvchilarining mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish;

□ qo'shma ta'lim dasturlari, ilmiy loyihalarni amalga oshirish, zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish, professor-o'qituvchilar, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning xorijda malakasini oshirish va stajirovkalarini tashkil etish hamda bitiruvchilarning magistratura va doktorantura dasturlari bo'yicha tahsil olishlarini ta'minlash maqsadida xorijiy yetakchi oliy ta'lim va ilmiy muassasalar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;

□ Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda mustaqil ravishda o'quv rejalari va dasturlarni, bitiruvchilarga qo'yiladigan malaka talablarini o'quv jarayonining issiqlik energitikasi sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bilan uzluksiz aloqasi ta'minlanishini hisobga olgan holda mustaqil ishlab chiqish va tasdiqlash;

□ kredit-modul tizimini o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha professor-o'qituvchilar o'quv yuklamasini mustaqil me'yorlashtirish, shuningdek pedagog xodimlar tomonidan o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot ishlari, «ustoz-shogird» tizimi bo'yicha ishlarning bajarilishini rag'batlantirib borish;

□ shartnoma asosida Universitet faoliyati yo'nalishlari bo'yicha maslahat va ekspert-analitik xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek Vasiylik kengashi bilan kelishilgan holda taqdim etilayotgan xizmatlarni samarali amalga oshirish maqsadida ilmiy-tadqiqotchilik va innovatsion xizmatlar tuzilmalarini shakllantirish;

□ bakalavriat, magistratura va oliy ta'limdan keyingi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikdagi qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash;

□ kadrlar iste'molchilarining talablarini inobatga olgan holda, o'quv rejalardagi nazariy ta'lim ulushini qisqartirish hisobiga barcha turdagi amaliy mashg'ulotlar hajmini oshirish, haftada bir kunlik amaliyot tajribasini qo'llash.

– Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida **davlat oliy ta'lim muassasalariga chekka**

huddudagi mahalla fuqarolar yig'inlarini biriktirish lozim. Bunda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

- ☐ Talabalar yotoqxonalarida, madaniyat markazlarida va mahalla fuqarolar yig'inlarida yoshlar bilan muntazam ravishda uchrashuvlar tashkil etish, ochiq davra suhbatlari va madaniy tadbirlar o'tkazish;
- ☐ Oila, ta'lim tashkilotlari va **mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot olib borish;**
- ☐ Yozgi ta'til davrida yoshlar o'rtasida mahallalar, sektorlar va tumanlar miqyosida sport hamda harbiy vatanparvarlik musobaqalarini tashkil etish;
- ☐ Har bir oliy o'quv yurti yon-atrofidagi mahallalar uchun ma'naviyat markazi, madaniyat o'chog'i bo'lishiga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish;
- ☐ Maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimi, mahalla va boshqa tuzilmalar kesimida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning monitoringini olib borish;
- ☐ “Bir ziyoli – bir mahallaga ma'naviy homiy” tamoyili asosida har bir mahallaga professor-o'qituvchi va taniqli ziyolilarni biriktirish;
- ☐ Talabalar yotoqxonalarida, madaniyat markazlarida va mahalla fuqarolar yig'inlarida yoshlar bilan muntazam ravishda uchrashuvlar tashkil etish.
- Tahlillar shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligining to'liq ta'minlanmasligiga bir qancha **omillar ta'sir ko'rsatmoqda.** Xususan:
 - ☐ ish beruvchilar bilan hamkorlik aloqalari va shartnoma munosabatlari qiyinchiliklar bilan o'rnatilayotganligi, bunda ish beruvchi korxona, tashkilot va muassasalarning sustkashligi;
 - ☐ viloyatlar va tumanlar kesimida yosh mutaxassislarni ishga taqsimlash va yo'llash mumkin bo'lgan potensial ish beruvchi korxona, tashkilot va muassasalardagi bo'sh ish o'rinlari -oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar haqida aniq ma'lumotlarning vaqtida taqdim etilmasligi;
 - ☐ bitiruvchilarni ishga joylashtirishda mahalliy hokimiyatlar, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari, savdo-sanoat palatasi, agentliklar,

mehnat birjalari, ishonchli vakillar kabi yordamchi-vositachilik tuzilmalarining imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanmaslik holatlarini hanuzgacha mavjudligi va h.k.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlash jarayonini yanada jadallashtirish bo'yicha qarorlari va "Yo'l xaritalarini" bugungi global pandemiya sharoitidan kelib chiqib qayta ishlab chiqish, vaziyatga qarab unga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritib borish kerak.

Mazkur hujjatlar ijrosi doirasida oliy ta'lim muassasalarining yirik ishlab chiqarish korxonalari, davlat tashkilotlari, tadbirkorlik sub'ektlari, ilmiy-tatqiqot institutlari va markazlari bilan o'zaro hamkorliklar yo'lga qo'yilmoqda. Ushbu hamkorliklar ta'lim sifatining oshishiga va bo'lajak kadrlarning nazariy bilimlar bilan birgalikda amaliy ko'nikmalarning yuqori darajada shakllanishiga olib keladi. Mamlakatda ta'lim sifatining yuqori darajada tashkil etilishi ushbu mamlakatning kelajak rivojining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

Iste'dodlar uchun global urush raqobatning asosiy harakatlantiruvchisi va global miqyosdagi ta'lim muassasalari, korporatsiyalar va butun mamlakatlar uchun ustuvor vazifaga aylanmoqda. Xalqaro miqyosning tobora kengayib borishi butun dunyoda maktabda ham, universitetda ham keng tarqalgan. Masalan, Shveysariyaning ko'plab maktablarida o'quvchilar - ushbu mamlakat fuqarolari ulushi endi 30 foizdan oshmaydi, bu esa kantonal hokimiyatni o'z ona tilida o'qitish sifatini saqlab qolish uchun maxsus choralar ishlab chiqishga majbur qiladi.

Ayni paytda global rivojlanish tendensiyalari ta'sir ko'rsatmoqda ta'lim, oliy ta'limni o'zgartirish jarayonlari faol davom etmoqda. Global ta'lim sohasida raqobat kuchayib borishi shartlari kosmik, dunyo universitetlari oldida jiddiy muammolarga duch kelmoqdalar oldinroq. Ular nafaqat o'quv va ilmiy jihatdan raqobatlashishga majbur ish, shuningdek, innovatsiyalarni yaratish, iqtisodiy o'sishga ta'sir qilish sohasida, asosiy dunyo muammolarini hal qilinishga qaratigan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rahbariy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 48b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O'zbekistan, 2017. –B.21.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild.– T.:“O'zbekiston”, 2017., 592 bet
6. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimiga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild.– T.:“O'zbekiston”, 2017., 458 bet
7. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug', kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.:“O'zbekiston”, 2019., 400 bet
8. Azmu shijoatli yoshlarimiz bilan birgalikda yangi O'zbekistonni albatta bunyod etamiz. / O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yoshlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi
[//https://president.uz/uz/lists/view/4463](https://president.uz/uz/lists/view/4463)
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // www.uzA.uz
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // www.uzA.uz

2. Me'yoriy- huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.:“O'zbekiston”, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni. –T.: 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni .
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947 - sonli Farmoni. Toshkent “Adolat” 2017 y. www.lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2909-sonli qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3775-sonli qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 20.04.2017 yil.№ PQ-2909 - sonli Qarori
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 27 iyuldagi № PQ 3151 – sonli Qarori
9. 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2909-sonli qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.
11. O‘zbekistonRespublikasiPrezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoniga 1-ILOVA // <https://lex.uz/docs/4545884>

3. Maxsus adabiyotlar

1. Axliddinov i dr. “Upravlenie obrazovaniem v Uzbekistane: problemi, poisk, resheniya”. T. “Ec-TACIC”. 1999–214 ctr.
2. Alimova Natalya Konstantinovna Sovremennye tendentsii razvitiya sistemi obrazovaniya // Vestnik yevraziyskoy nauki. 2020. №4 (9). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-tendentsii-razvitiya-sistemy-obrazovaniya> (data obrasheniya: 17.07.2021).
3. Vasileva Marianna Matveyevna Tendentsii razvitiya visshego obrazovaniya // Sennosti i smisli. 2014. №5 (33). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tendentsii-razvitiya-vysshego-obrazovaniya> (data obrasheniya: 17.07.2021).
4. Icaqulova N., Qocimova Z. Xorijiy mamlakatlarda ta’lim. – T. 2011. – 106 bet
5. Icroilov B.I. Ta’lim tizimida innovatsion korporativ hamkorlikni rivojlantirishda iqtisodiy mexanizmlar rolini oshirish. TMI, IAK, 2016 yil., 26 mart.
6. Isyanov R.G. va boshqalar. Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilarining malakasini oshirish texnologiyalari. Monografiya. –T.: Fan. 2011
7. Korznikova G.G. .Menejment v obrazovanii. Prakticheckiy kurs. M., “Akademiya”, 2008–288 ctr.
8. Kapalyushnikov R.I. Rossiyskiy rinok truda: adaptatsiya bez restrukturizatsii-M.:GUVSHE,2015.-S.78-82.;
9. Kapustin Ye.I. Sfera obslujivaniya pri sotsializme–Ye.I.KapustinM.: «Misl», 1968.-.203s.;
10. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta’lim tizimini boshqarish. -T.:”Turon-Iqbol”: 2006. – 592 b.
11. Lutfullaev. Oliy ta’lim muaccacacida cifatni va raqobatbardoshlikni ta’minlashda strategik rejalashtirishning ahamiyati. // [http://www.erasmusplus.uz/images/shared/ file/HEREs%20 publication202018202.pdf](http://www.erasmusplus.uz/images/shared/file/HEREs%20publication202018202.pdf)
12. Noskov V.A. Visshaya shkola v sisteme obshestvennogo vosproizvodstva. Avtoreferat. Dis. na sois uch. step.d.e.n. Kostroma – 2013. 38s.
13. Peregudov L.V.,Caidov M.X. Ta’lim tizimi menejmenti va iqtisodiyoti. T. Moliya. 2005–156 bet.
14. Pravdin D.I. Razvitiye neproizvodstvennoy sferi pri “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 2, aprel, 2019 yil 8 sotsializme–M., «Ekonomika»,2016-158s.;
15. Rejapov X. Oliy ta’lim tizimida xorij tajribasi va ulardan foydalanish imkoniyatlari. //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017 yil.
16. Rutgayzer V.M. Resursi razvitiya neproizvodstvennoy sferi – V.M.Rutgayzer - M., «Misl», 2015-229s.;

17. Traynev V.A., Dmitriev C.A. Menejment i marketing v obrazovanii, nauke i proizvodctve i ego informatsionnoe obecpechenie. Metodologiya i praktika. M., Univercitet informatizatsii i upravleniya. 2008– ctr.
18. Fayzullaeva D.M., Lutfullaeva N. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. Moduli bo'yicha o'quv-uchubiy majmua. Toshkent 2016 yil.
19. Xolov A.X. "Aqli" boshqaruv prinsiplariga bosqichma-bosqich o'tish masalalari.// "Jamiyat va boshqaruv" jurnali, 2019 yil 2-son. 72-79 betlar.
20. Xolov A.X. Assessing the effectiveness of management decisions of local executive authorities. // Journal of Management Value & Ethics /Approved List Journal S.No. 1 & 63148. Jan-March. 18 Vol. 8 No.1 90-97 P.
21. Xolov A.X. Boshqaruv qarorlari samaradorligini baholashning zamonaviy usullari va rahbar mas'uliyati. Monografiya. –T.: «Tafakkur-qanoti» nashriyoti, 2017. -224 bet.
22. Xolov A.X. Menejment fani rivojida boshqaruv qarorlari qabul qilishning psixologik usullarining ahamiyati. // «Fan va ta'limni rivojlantirishda yoshlarning o'rni» respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to'plami.–T.: O'zYOI, 2017 yil 24 noyabr. 533-537 betlar
23. Xolov A.X. Mehnat bozorini tartibga solishda ta'lim tizimi roli. // "Uzluksiz ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.-T.: TDPU, 2014 yil. 12-13 noyabr. 47–49 betlar.
24. Xolov A.X. Otsenki effektivnosti upravlencheskix resheniy. Monografiya. Lambert Academic Publishing, Beau Bassin 2018 // <https://www.lap-publishing.com> – 54 str.
25. Xolov A.X. Ta'lim muassasasini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari. // "O'zbekistonda oliy ta'limning isloh etilishi: taraqqiyot tajribasi va istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami -T.: "O'zMU" 2012 yil 19 noyabr. 230-234 betlar.

4. Xorijiy adabiyotlar

1. Trueman, C. N. «Decision Making In Government» history learning site.co.uk. The History Learning Site, 27 Mar 2015. 16 Aug 2016.
2. Juliusson E.A., Karlsson N., Gärling T. Weighing the past and the future in decision making. European Journal of Cognitive Psychology. 2005 y. 17(4)-son. 561-565 betlar.
3. Mense, Evan & Lemoine, Pamela & Garretson, Christopher & Richardson, Michael. (2018). The Development of Global Higher Education in a World of Transformation. Journal of Education and Development. 2. 47. 10.20849/jed.v2i3.529.
4. Zechlin, Lothar. (2010). Strategic Planning in Higher Education. 10.1016/B978-0-08-044894-7.00885-X.
5. Lange Clenn-Marie, Quentin Wodon and Kevin careyeds/ 2018/ The changing Wealth of nations 2018. Bulding a sustainable Future Washington, DC World Bank. Doc. 10.1596/978-1-4648-1046-6 P8.

6. Fisbein, Ariel va Dena Ringold “Benchmarking thr Governance of Tertiary Education Systems.” Washington DC: The World Bank 2019; Weber, Luc, J.Dudestatdt “Universty Research for Innovatio.” London: Economica 2010
7. Chadwick, P. (1996), “Strategic management of educational development”, Quality Assurance inEducation, Vol. 4 No. 1, pp. 21-5.

5. WEB resurslar.

1. www.lex.uz
2. www.edu.uz
3. www.gov.uz
4. www.jstog.uz
5. www.president.uz
6. www.mext.go.jp
7. www.biznes-daily.uz/birjayexpert/49060
8. www.reading.ac.uk
9. www.academicjournals.org/AJBM
10. <http://reyting.tdi.uz/about/>